

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“UMUMIY PEDAGOGIKA” KAFEDRASI

**“Barkamol avlodni tarbiyalashda o'zbek mutafakkirlarining o'git-
nasihatlaridan foydalanish ” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Boshlang'ich sinf va sport tarbiyaviy
ish” ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi 4 kurs
talabasi **To'raeva Dilnoza**_____

ILMIY RAHBAR:

dots. Mirzaev.M_____

Bitiruv malakaviy ish kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____sonli bayonnomasi “ _____ ” _____2013 yil

TERMIZ – 2013

Reja:

Kirish

I BOB. Mutafakkirlar me'rosidan foydalanishning ilmiy pedagogik asoslari.

I.1. Barkamol avlodni tarbiyalash – jamiyat taraqqiyotining asosiy va bosh masalasidir.

I.2. Markaziy osiyo mutafakkirlarining qarashlarida barkamol avlodning tarbiyasi.

II BOB. Barkamol avlodni tarbiyalashning usul va vositalari.

II.1. Boshlang'ich sinf darslarida mutafakkirlarning me'rosidan foydalanish usullari.

II.2. Sinfdan tashqari ishlarda mutafakkirlarimiz o'gitlaridan foydalanish.

Umumiy xulosa va tavsiyalar

Foydalanilgan adabiyotlar

Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hiech qachon unutmasligimiz kerak.

Islom Karimov

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy sohada islohatlarning amalga oshirilishi kelajagi buyuk davlatimizning yoshlarini har tomonlama yetuk, jismonan baquvvat, raqobatbardosh, intellektual salohiyatli bo'lgan barkamol avlod tarbiyasi oldiga muhim vazifalarni qo'ymoqda. Bu, avvalo, kelajak avlodni ma'naviy – ahloqiy jihatdan har tomonlama tarbiyalashni, ularda bilim, keng dunyoqarash va e'tiqodga ega bo'lishni talab etadi. Chunki mamlakatimiz kelajagi va istiqboli ana shu avlod tarbiyasiga har tomonlama bog'liq. Zero, mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganidek: “Erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb mazifadir. Boshqacha aytganda, biz o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'ladigan, voqyea – hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerkak”¹.

Shundan kelib chiqib ta'lim – tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ma'naviy – ma'rifiy ishlarning ko'lami yoshlarga milliy g'oyani singdirish, ularni g'oyaviy jihatdan tarbiyalash, ma'naviy – axloqiy sifatlarini rivojlantirish mazmuni sifat jihatdan yangilanmoqda. 2010 yilning “Barkamol avlod yili” deb e'lon qilinishi ham mamlakatimizda, sog'lom va barkamol avlodni

¹Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. 17-18-betlar.

tarbiyalash, yoshlarning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, mamlakatimiz yigit – qizlarini «XXI asr – intellektual asr»ning talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart – sharoitlarni va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamdagi aniq yo'naltirilgan chora – tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq belgilangan.

Prezidentimiz I.A.Karimovning "... yoshlarni qay usulda o'qitish, ularni tarbiyalash, mustaqil mamlakatimizning yetuk mutaxassislari bo'lishiga qayg'urish har birimizning muqaddas burchimizdir. Bunda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi saviyasini jahon andozalari darajasiga yetkazish, xalq xo'jaliklarda mutaxassislarga bo'lgan talab va ehtiyojlarni ilmiy tahlil asosida aniqlash, xorijiy mamlakatlar tajribasidan oqilona foydalanish shu kunning dolzarb masalalaridandir"¹ – degan fikrlari yetuk mutaxassislarni tayyorlashda ta'lim texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga bag'ishlangan. Darhaqiqat, Respublikamiz yoshlarini bilimli, ma'rifatli shaxs sifatida kamol toptirishda zamonaviy pedagogik texnologiyaning roli beqiyos. Ta'lim jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalar jahon ta'limi andozalari talablariga javob berishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Bunda yoshlarni Vatan, milliy mustaqillik g'oyalariga sadoqat, axloqiy jihatlarni tarkib toptirish ruhida tarbiyalash, rejalashtirilgan natijalarga erishishning muhim shartidir.

Bu o'z navbatida ta'lim – tarbiya sohasida faoliyat ko'rsatayotgan ustoz murabbiylardan ijodiy izlanishni, ishga yangicha yondashishni, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishni talab etadi.

Ushbu qo'llanmada intellektual salohiyatli barkamol avlodni turli xil usul va vositalardan foydalanib tarbiyalash masalalari, jumladan, ajdodlarimiz ham yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirishga doimiy ravishda e'tibor berib kelganligi, ayniqsa mustaqillik davrida ta'lim tizimidagi islohotlar, milliy modelning qabul qilinishi, intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashning muhim jihatlari, ularni g'oyaviy jihatdan tarbiyalashda sog'lom turmush tarzining

¹ Karimov I.A.

ahamiyati, milliy g'oyaning roli, ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning tashkiliy tuzulmaviy modeli, barkamol avlod tarbiyasi tizimida innovasion texnologiyalardan foydalanish to'g'risida fikr yuritiladi.

Darhaqiqat, har qanday jamiyat taraqqiyoti ta'lim – tarbiya bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, yoshlarni intellektual salohiyatli mutaxassislar qilib tarbiyalash, ular ongiga milliy an'analarini singdirish, qadriyatlarni asrab – avaylash, yoshlar ongi va qalbiga milliy g'oya tushunchalarini zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali shakllantirish bugungi davr talabidir.

Barkamol avlod tarbiyasiga katta e'tibor berilayotgan bugungi kunda ulug' ajdodlarimiz merosini o'rganmog'imiz juda muhimdir. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi bobolarimizning ijodlarida ta'lim- tarbiyaning umumiy metodologik masalalari, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabati, y'quvchiga ijtimoiy muhit orqali ta'sir ko'rsatish yo'llari, o'qitish usullari haqidagi qarashlari ayni paytda ham muhim ahamiyatga egadir. Barkamol avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash ularda ona-yurtiga muhabbat tuyg'ularini, uni himoya qilish, asrab-avaylashga qaratilgan intilishlarini kuchaytirishga yordam beradi. Milliy jihatdan o'zligini anglagan insongina davlati oldida turgan asosiy maqsadlari nimadan iboratligini tushunib, halq oldidagi mas'uliyatini chuqur anglaydi. Yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash ularning ijtimoiy faolligini oshirishga hizmat qilib, ma'naviy komillikka yerishuvida asosiy va belgilovchi omil vazifasini o'taydi.

O'zligimizni, qadr-qimmatimizni anglash, milliy g'urur, taraqqiyotga, farovon kelajakka intilish tuyg'usi mustaqillik tuhfa etgan ulug' ne'matlardan. Ana shunday ezgu qadriyatlar ruhida tarbiya topgan avlod buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Shu bois respublikamizda yoshlar har jihatdan barkamol insonlar bo'lib voyaga yetishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, mamlakatimizda yoshlarning har tomonlama komil inson bo'lib voyaga yetishlari uchun barcha sharoit yaratilgan. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Barcha ezgu niyatlarimizning markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish,

ularning baxtu-saodati, farovon kelajagini ko‘rish, dunyoda hyech kimdan kam bo‘lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi”.¹

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz o‘z bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini **“Barkamol avlodni tarbiyalashda o‘zbek mutafakkirlarining o‘git nasihatlaridan foydalanish”** deb tanlashni lozim topdik.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi: Barkamol avlodni tarbiyalash tushunchasi, uning shaxsda shakllanishi jarayonlari haqida sharq mutafakkirlaridan Muxammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Yusuf Hos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy tomonidan yuksak ta'rif va tasniflar berilgan.

Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarlarida barkamol avlod tarbiyasida yuksak ma'naviyatning qudratli ta'sir kuchi to‘g‘risida batafsil yoritilgandir.

Shuningdek, pedagoglarimizning zahmatkash olimlaridan M.Haydarov, G.Karimova, O.Musurmonova, B.Qodirov, A.Kenjaboev, M.Bozorova, X.Ibrahimov, S.Nishonovalar, faylasuf-sotsiologlardan Sh.Ergashxo‘jaev, V.Erkaev, A.O‘lmasov, A.Ibragimov, X.Sultonov, S.Otamurodov, E.Bobomurodov, X.Xudoyberdiev, R.Norlievlar tomonidan ma'naviyat, ma'naviy axloqiy tarbiya mazmuni, oila ma'naviyati, milliy o‘zlikni anglash kabi qator muammolar haqida ilmiy izlanishlar olib borishgan va hozirgi kunda ham tadqiqotlar olib borishmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Barkamol avlodni tarbiyalashda o‘zbek mutafakkirlarining o‘git nasihatlaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganish orqali mazkur jarayon mazmunini yoritish va ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

1.Barkamol avlod tarbiyalashda mutafakkir o‘gitlaridan nasihatlaridan foydalanishning ilmiy nazariy asoslarini aniqlash orqali uning pedagogik muammo ekanligini asoslash.

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi 4-5 bet

2. Barkamol avlod tarbiyalashda mutafakkir o'g'itlaridan nasihatlaridan foydalanishning o'ziga hos jihatlarini asoslash.

3. Barkamol avlod tarbiyalashda mutafakkir o'g'itlaridan nasihatlaridan foydalanishga qaratilgan ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqish va uning samaradorligini belgilash.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti: Barkamol avlod tarbiyalashda mutafakkir o'g'itlaridan nasihatlaridan foydalanish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Barkamol avlod tarbiyalashda mutafakkir o'g'itlaridan nasihatlaridan foydalanish mazmuni vositalar usul va metodlari uni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Buyuk mutafakkirlarning pand-u nasihat tarzida yozilgan asarlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmoyishlari, mavzuga oid ilmiy pedagogik, psixologik, falsafiy ijtimoiy hamda me'yoriy huquqiy manbaalar.

Bitiruv malakaviy ishning yangiligi:

1. Barkamol avlod tarbiyalashda mutafakkir o'g'itlaridan nasihatlaridan foydalanish pedagogik muammo ekani nazariy jihatdan asoslandi.
2. Barkamol avlod tarbiyalashda mutafakkir o'g'itlaridan nasihatlaridan foydalanishning pedagogik psixologik asoslar aniqlandi.
3. Barkamol avlod tarbiyalashda mutafakkir o'g'itlaridan nasihatlaridan foydalanish jarayoni o'ziga hos jihatlari.
4. Barkamol avlod tarbiyalashda mutafakkir o'g'itlaridan nasihatlaridan foydalanishga qaratilgan ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va samaradorlik darajasi belgilandi.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi va hajmi: ish kirish, 2 bob, 4 bo'lim, umumiy xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami (75) sahifani tashkil qiladi.

I BOB. MUTAFAKKIRLAR ME'ROSIDAN FOYDALANISHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI.

I.1. Barkamol avlodni tarbiyalash – jamiyat taraqqiyotining asosiy va bosh masalasidir.

Bugun O'zbekiston juda muhim va mas'uliyatli davrni boshidan kechirmokda. U milliy uyg'onish, milliy ongning yangilanishi, milliy g'oya va mafkuraning shakllanishi, millatning o'zligini anglashi, har bir shaxsda intellektual salohiyatni kamol toptirish kabi hayotimizning barcha jabhalarida yangicha mezonlar va tamoyillarning rivojlanishi bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi. Mustaqil davlatchilik asoslarining bunyod etilishi, tom ma'noda umuminsoniy va milliy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan davlatni shakllantirishda jahonga mashhur allomalar, ma'rifatparvarlarni, din. madaniyat, adabiyot va san'at arboblarni, ya'ni ma'naviyat yulduzlarni yetishtirgan millatimiz vorislari sifatida o'zining buyuk o'tmishiga nazar solmoqda, buyuk ajdodlarning g'oyalari va ibratli ishlaridan saboq olishga, jahonning ilg'or mamlakat va xalklarining yutukdarini o'rganishga intilmokda.

Ayniqsa, barkamol insonni tarbiyalash g'oyasi hozirgi davrda milliy falsafamizning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmokda. I.Karimovning 2005 yil talabalar shaharchasida O'zbekiston Milliy universiteti talabalari bilan suhbatida falsafa hamma fanlarning otasi, hayot - bu dialektikadir, -deb ta'kidladilar. Zero, barkamol insonni tarbiyalash hamda jamiyat taraqqiyoti bir-biri bilan uzviy aloqada. Bu jarayonni bilish esa, inson tafakkurining qadimgi davrlaridan boshlab, bosqichma-bosqich rivojlanishi va shu bilan birga insonning ham tobora shakllana borganligi haqida to'la tasavvur hosil qilishga imkon beradi².

Barkamol avlodni tarbiyalash va mukammallikka yetkazish oiladan boshlanadi. Inson o'z xayotini oilasiz tasavvur qila olmaydi va aynan mana shu

² Jakbarov M. Komil inson g'oyasi: tarixiy-falsafiy tahlil. -T.: Abu Ali ibi Sino, 2000. -B. 3; Pedagogika tarixi (Pedagogika oliy o'quv yurtlari va dorilfununlar talabalari uchun o'quv qo'llanma) G' Hoshimov . va boshqalar.

oila muhitida u jamiyat a'zosi sifatida kamolotga erishadi. Oiladagi tarbiya muhiti avvalambor oilaviy munosabatlar madaniyatiga bog'liq bo'ladi. Oila boshliqlari bilan bolalarning o'zaro yaxshi munosabati, o'zaro totuvlik, mehr-oqibat, g'amxo'rlik, ya'ni xonadon qariyalariga hurmat, e'tibor, oiladagi bolalarning o'zaro munosabatlari to'g'ri tarbiya vositalarining samaradorligi, ota-onaning bolalar tarbiyasiga barobar jonkuyarligi, oilada o'rnatilgan to'g'ri tarbiya va yaxshi odatlar, ota-onaning mehnatga, ijtimoiy hayot xodisalariga to'g'ri munosabatda bo'lishi, o'z burchiga mas'uliyatni teran his etishlari kabilar oilaviy munosabat, oila madaniyatining nozik qirralaridir. Ularning qay birida mutanosiblik maqomi buzilsa, demak, o'sha oiladagi sog'lom muhitga putur yetadi. Oilada sog'lom muhit va sog'lom munosabat mavjud bo'lsa, oilada ham, millat va jamiyatda ham sog'lom muhit qaror topadi.

Shuningdek, oiladan tashqari ta'lim tizimi, mehnat jamoalari, jamoat joylarida yuzaga keladigan sog'lom ijtimoiy munosabatlar, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy munosabatlar majmuasi va tizimi inson hayoti faoliyatining sog'lom ijtimoiy va ruhiy, ma'naviy va axloqiy muhitini yuzaga keltiradi.

Jamiyat xayotida qaror topgan ijtimoiy va ruhiy muhitning shakllanishi bevosita inson faoliyati bilan bog'liq. Sog'lom ijtimoiy muhit yaratuvchisi ham inson sanaladi. Inson fikrlash, so'zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lib, ular tufayli boshqa barcha mavjudot va maxluqotdan ustun turuvchi oliy va muqaddas zotdir. Shunday ekan, inson ta'lim-tarbiyasida oila, bog'cha, mahalla bilan bir qatorda o'quv muassasalarining ham ta'sirchan roli alohida nufuzga egadir. Bularga maktab, o'rta-maxsus va oliy o'quv yurtlari hamda boshqa ma'naviy-ma'rifiy va madaniy-oqartuv muassasalari kiradi. Ta'lim-tarbiya muassasalaridagi ijtimoiy muhit sog'lom bo'lsa, talabalarda shakllangan ijtimoiy-axloqiy fazilatlar, ajdodlarga xos qadriyatlarga munosib hayotga tayyorgarlik darajasi va bilim, saviyasi tafakkur doirasi ham yuqori bo'ladi.

Tadkikotlarimiz davomida inson bioijtimoiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy muxit boskichlarini taxlil etar ekanmiz, individning ijtimoiy muhit ta'siri

ostida orttirgan barcha bilim va tajribalarining asta - sekin ongi-shuuriga singib, ko'nikmaga, so'ngra malakaga va nihoyat inson ijtimoiy mohiyatining eng cho'qqisi bo'lmish sog'lom hayot tarziga aylantirish bugun eng dolzarb vazifalardan biridir. Inson ijtimoiy muhit bosqichlarini o'z taraqqiyoti davomida ketma-ket bosib o'tadi va har bir bosqichda o'ziga xos ijtimoiy va shaxsiy hayoti uchun zarur bo'lgan ma'lumotga, bilim va ko'nikmaga ega bo'ladi. Bu jarayon shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishiga ta'sir etadi. Uning kundalik hayot mazmuniga aylanadi (Qarang: 3-ilova). Inson kamolotiga ta'sir qiluvchi hayot uchun zaruriy muhitlarni quyidagicha ifodalash mumkin.

Inson faoliyatining mazmuniga kura, fanda shaxs bilan muntazam aloqada bo'lgan muhit uch guruhga bo'linadi: kichik muhit (oila, maktab, maktab jamoasi, do'stlar va tanishlar davrasi). katta muhit (ijtimoiy tabaqalar, kasbiy guruxdar, milliy guruxdar, demografik guruxdar, diniy guruxdar), umumijtimoiy sharoit. Ushbu muhitlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxe ma'naviyati shakllanishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir etadi (Qarang: 4-ilova).

Ana shu bosqichlarning eng muhimi va birinchisi oila muhitidir. chunki oila inson kamolotining bosh bo'g'ini, davlat tizimining eng muhim instituta, jamiyatimiz o'zagi, negizidir. Shuning uchun ham oilani sajdagoh, Vatan ostonadan boshlanadi, deymiz.

Oila shaxsning ma'naviy shakllanishiga bevosita ta'sir etadigan kichik muhit bo'lib, kishilik jamiyatining ma'naviy ildizidir. Oiladagi ma'naviy sharoit ijtimoiy muhit boskichlari bilan uzviy bog'likdir. Shuning uchun biz, avvalo, ijtimoiy muhit bosqichlariga to'xtab o'tamiz.

Oila - kishilar hayotining eng muhim qismi, jamiyatning kichik hujayrasi, ijtimoiy-madaniy organizmi. Qadimdan jamiyat tarakqiyotining sifati va salmog'i oilalardagi holat bilan belgilanadi. Oilalar butunligi, mustahkamligi, farovonligi jamiyatning mavqeyini belgalaydi. Inson ma'naviyatining birinchi poydevori oilada shakllanadi³.

³Qarang Saydaliyeva Nigora Zaynitdinovna. Oila va yoshlarni oilaviy qaytga tayyorlashning ijtimoiy-falsafiy masalalari G'G' Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – T.: 2002. 3 b.

Inson o'z hayotini oilasiz tasavvur qila olmaydi va aynan mana shu oila muhitida u jamiyat a'zosi sifatida tarbiya topadi. Oiladagi tarbiya muhiti avvalambor oilaviy munosabatlar madaniyatiga bog'liq bo'ladi. Ya'ni, ota-onalar bilan farzandlarning o'zaro yaxshi munosabati, qariyalarga hurmat-e'tibor, farzandlarning o'zaro munosabatlarning to'g'ri yo'naltirilganligi, ota-onaning farzandlar tarbiyasiga o'ta masulligi, oilada o'rnatilgan namunali tartib va ijobiy urf-odatlar, ota-onaning mehnatga, ijtimoiy hayot hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'lishi kabilar oilaviy munosabatlar madaniyatining nozik qirralaridir. Bularning qay birida mutanosiblik buzilsa, demak, o'sha oiladagi sog'lom muhitga putur yetadi va nosog'lom munosabatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Barkamol sog'om avlod tarbiyasiga, ma'naviy shakllanishiga ta'sir etuvchi kichik muhitlardan biri oila kishilik jamiyatining ma'naviy-axlokiy o'zagi hisoblanadi. Ammo, «Yaxshi oila - yaxshi tarbiyalovchi, yomon oila-yomon tarbiyalovchi», deyuvchilar ko'p holda xato qiladilar. Ba'zida yomon oilalarning farzandlari ham xavas qilsa arzigudek kishi, shaxe bo'lib voyaga yetishadi, tag-tugli oilalarning farzandlari esa ba'zida lokayd, salbiy axlokiy illatlar sohiblari bo'lib shakllanadilar. Oilaning bolaga o'tkazadigan ta'sir kuchi nihoyatda ulkandir. Pasangi u tomonga egiladimi, bu tomongami, baribir oila hamisha bolaning shaxsiyatini o'z «qarichi»ga moslab shakllantiradi, uzok yillar davomida xayotga bo'lgan o'z qarashlari, axloqiy me'yorlari, qadriyatlarni anglash yo'nalishlarini uning ongiga singdirib boradi. Nima sababdan oila bunday qudratga ega? Nega jamiyatning boshqa institutlari oiladek zabardast kuch-qudratga ega bo'lsalar-da, jamiyatning bir qismi bo'lgan inson kamoloti va sotom avlodni yetuk qilib tarbiyalashda sustkashlikka yuz tutadilar? Buning boisi shundaki, oila qari-yu yoshdan iborat bir butun jamoadir. Bola ' dunyoga kelib, esini tanibdiki, shu oilaning a'zosiga aylanadi, shu oilaning «yog'ida qovuriladi», uning ta'siri, ta'bir joiz bo'lsa, bolaning ongiga, shuuriga sut bilan kirib, jon bilan chiqadi. Bu jamoa o'zining rasm-rusumlari, odatlari, an'analari, odob-axloq va huquqiy me'yorlari bilan jipslashgan tarkibga ega, ushbu tarkib doirasida ota-onalar, bola-chaqa, bobolaru buvilarni bir qolipga tushtan son-sanoqsiz munosabatlar boglab turadi,

ularning asosiysi hamjihatlik, ahillik, totuvlik, kattalarga - hurmat, kichiklarga izzatdir. Aynan shu munosabatlar oiladagi psixologik «muhit»ni belgilaydi, bolalarning ongi dunyoqarashi, o'zini-o'zi anglashi, odamlarga, hayotga munosabatlarini shakllantiradi. Oila bilan birgalikda ro'zgorni tebratish, birga dam olish, oila a'zolarining qiziqishlari-yu ixlosmandliklari bola ongiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, akd-idrokiga muhrlanadi. O'zi sezmagan holda bola turmushning turli sohalaridan, xabardor bo'ladi, o'rganadi, ko'nikma hosil qiladi, avvalo odamlar bilan munosabatda bo'lish, oqilona muomala qilishni o'rganadi.

Oilada bolalarning ilk hayotiy tajribasi shakllanadi, u muhim ijtimoiy va ma'naviy-ruhiy qadriyatlarni his eta boshlaydi. Aynan oilada bolaning ma'naviyati, ya'ni, axloqiy qiyofasi shakllanadi, ezgulik va yovuzlik, or-nomus va halollik, burch va mas'uliyat haqidagi tasavvurlari paydo bo'ladi, oq va qorani taniy boshlaydi. Bu fazilatlarni maktab rivojlantiradi, hayot sayqal beradi, ammo ularning asosiy poydevorini oila shakllantiradi («Qush uyasida ko'rganini qiladi», - deb bejiz aytishmaydi). Va nihoyat, oila muhitida rivojlanayotgan bolalar o'zlariga kasb-hunar tanlaydilar. Maktabda kasbga yo'naltirish ishlari oliy darajada bo'lsa-da, bolaning hayotda o'z o'rniga ega bo'lishida ota-onalarning roli nihoyatda muhim. Bolaning fe'li-atvori uning oilaviy munosabatlar tizimidagi tutgan o'rniga chambarchas bogliq. Ota-onaning erkatriyi yoki begonadek «o'gay»mi, yoki oilaviy tashvishlardan o'zini olib qochadigan «bebosh»mi - bular bolalar takdiri b plan bogliq. Bunday muxitlarda tarbiya ko'rgan bolalar xudbin, ko'ngli yarimta, ichi qora bo'lib voyaga yetishadilar. Bolaga g'amxo'rlik qilish lozim, ammo u xam sizning g'amxo'rligingizni his etsin, unga o'zgalarni hurmat qilish bilan birga o'zini ham izzatda tutishini uqtirish kerak. Bu hammaga ayon haqiqat, ammo, afsuski, uni ko'pincha esdan chiqarib qo'yamiz, xususan - yolg'iz bolalik oilada «yolg'izim-yalmog'izim», -deyishadi. «Yolg'iz bolag'a ko'p hollarda oilaning katta yoshdagi a'zolari ko'proq e'tibor berib, keragidan ortiq g'amxo'rlik qilishadi. Natijada bola erkatoiy, serxarxasha, ta'magir bo'lib qoladi va ko'pincha maktabdoshlari bilan iqisha olmaydi, aksariyat hollarda bundaylarning do'stlari

xam kam bo‘ladi. Agar buning ustiga otasiz yoki onasiz qolsa bolaning tarbiyasi yanada qiyinlashadi.

Har bir konkret holda «oiladagi bola» muammosi o‘ziga xos tarzda hal qilinadi, chunki har bir oila o‘zgalardap farkdanadi va har bir bola o‘zgacha bo‘ladi, ularping har biriga alohida individual tarzda yondashmoq lozim⁴.

Oila - kishilarning tabiiy biologik jinsiy munosabatlari, uy-ro‘zg‘orni boshqarish, huquqiy nikohni fuqarolik holatlarida qayd etish, ma'naviy er-xotin, ota-ona va bolalar o‘rtasidagi sevgi, mehr-muhabbat tuyg‘usi va shu kabilar munosabatlariga asoslangan birlik. Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati, o‘zlarini tuta bilishlari muhimdir. Oilada muomala madaniyatiga rioya qilinishi maqsadga muvofiqdir. Kattalarga hurmat, kichiklarni avaylash, bir-biriga mehribonlik, ayniqsa, ayollarni izzat qilish odatga, qoidaga aylanishi lozim. Bolalarga otani hurmat qilishi, ung‘a mehribon bo‘lishni o‘rgatish otaning vazifasi va onaning namunasi sanaladi.

Demak, manfaatlari umumiy bo‘lgan ahil oilada yaxshi odat, an'analar vujudga keladi, sog‘lom muhit, mehr-oqibat, qadr-qimmat zamini yaratiladi. Bolalarning yaxshi tarbiya topishlari uchun real va tegishli sharoit vujudga keladi.

Oiladagi er-xotin o‘rtasidagi yuksak munosabat madaniyati bolalarii quvnoq, xushchaqchaq o‘sishlariga, to‘g‘ri tarbiyalanishlariga, xonadonda sog‘lom muhitning yaratilishiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi.

Qaysi oilada noahillik, qo‘pollik, do‘q-po‘pisa, asabiylik hukmron ekan, unda xuzur-xalovat ham bo‘lmaydi. Oiladagi arzimagan janjal xam dastavval bolalarning ruhiy holatiga ta'sir qiladi, ularda yoqimsiz odatlarning hosil bo‘lishiga olib keladi. Bolalar ulg‘aygach ular ham «qush uyasida ko‘rganini qiladi» qabilida ish ko‘rishadi. Shu bois oilada sog‘lom muhitni saklab qolish uchun ota-ona bir-biriga nisbatan hurmat-ehtirom doirasidan chiqib ketmasliklari, obro‘larini tushirmasligi, oilaviy nizolarni bola yo‘q vaqtida bartaraf etishlari lozim. Oiladagi sog‘lom muhitni doimiy ravishda sakdab turish uchun er-xotin baravar

⁴ Qarang: Novo`kova L.I. Shkola i sreda. -M.:znanie, 1985. -S. 17.

mas'uliyatlidir. Agar ulardan biri mehribonroq, xushtavozeroq bo'lsa, u ikkinchisiga namuna ko'rsatadi.

Bola yomon yoki yaxshi xulki, fe'l-atvorli bo'lib tug'ilmaydi. Uning ijtimoiylashuvi jarayonida oila muhiti, ota-onaning, qarindoshlarning, atrof-muhitdagi kishilar munosabatlarining ta'siri hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, ota-onaning o'zaro munosabati, yurish-turishi muhim ahamiyat kasb etadi. Oiladagi totuvlik, xamjihatlik, o'zaro hurmat va yordam, shirinsuxanlik, mehnatsevarlik va to'g'rilik bolaga ijobiy ta'sir qiladi.

Qaerda oila, oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi.

Abdurauf Fitratning «Rahbari najot» asarining «Bola tarbiyasi» masalalari bobida oila doirasida bola tarbiyasi muammolariga qaratilgan shunday fikrni uchratishimiz mumkin: «Oila vazifalaridan biri avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Yosh avlodni tarbiyalash hayotiy vazifalardan bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, dunyo kurashning umumiy maydoniga o'xshaydi va bu maydonning pahlavonlari insonlardir. Har bir kishi barkamollik yoshiga yetgach, u o'z saodati ta'mini uchun shu maydonga kirmasdan iloji yo'kdir. Bu kurashda g'olib chiqish uchun uch xil o'lchov quroli (sOллоhi maseh)... (1.salomatlik, 2.sog'lom fikr, 3.axloqi sano) ga ega bo'lish kerak»⁵.

Haqiqatan ham har bir ota-ona o'z farzandining hayotda qoqilmay munosib o'ringa ega bo'lishini xohlasa, uning kamoli uchun bu uch tarbiyani uyg'un holatda olib bormog'i lozim.

Oila jamiyat bilan bola o'rtasidagi oddiy vositachi bo'lib, o'zi kamol toptirayotgan shaxsning hulq-atvorini ko'p yillarga belgilaydi. Oiladagi yomon ruhiy va ijtimoiy muxit bolalarda salbiy hulq-atvor paydo bo'lishining jiddiy sabablaridan biridir. Pediatrlarning ilmiy tadqiqotlariga ko'ra, uch yoshgacha bo'lgan bolalarning hatto bir necha oy «mehr-muhabbatdan mahrum etilishi» xam

⁵ Pedagogika tarixi (Pedagogika oliy o'quv yurtlari na dorilfununlar talabalari uchun o'quv qo'llanma) G' Hoshimov . va boshqalar.-T.: O'qituvchi, 1996. 313 b.

ularning akdi, axloqiy va emotsional rivojlanishiga mislsiz katta zarar yetkazar ekan.

Shu tufayli, respublikamizda oilaga ustuvor davlat siyosati darajasida e'tibor berilmokda. Oilaga bunday e'tibor berilganligining asosiy sababi xalk hayoti asosan oilaviy hayot tarziga asoslanganligidadir.

Har bir oilaning mustahkamligi, oila a'zolarining tinch va farovon hayot kechirishi, o'zaro xurmat va izzatda yashashi bu yoshlarni kelgusi hayotga tayyorlashda muhim omildir, umuman, oila insonning shaxe sifatida shakllanishga ijobiy ta'sir kiladi, yoshlar ma'naviyatini takomillashtirishiga yordam beradi, millat asosini tashkil etib, ikki avlodni birlashtiradi⁶. Zero, uzbek oilasi mustabidlik zamopida xam o'zining tarixan shakllangan qiyofasini yo'qotmadi⁷.

Oila jamiyatning muqaddas uyi, soglom, barkamol inson tarbiyasiga mas'ul eng asosiy tarbiya makonidir⁸. Ammo biz sog'lom deganda faqat jismoniy sihat-salomatliknigina emas, balki sharqona axlok-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz. Zero, sharqona axloq-odob va umumbashariy goyalarni ongiga siigdirib olgan kishi ma'naviy boy inson bo'la oladi. Ma'naviy barkamollik esa, insonning dunyokarashi, e'tikodi, ruxiyati, xulq-atvor normalari, axlok,-odobiga bevosita aloqadorligi bilan ajralib turadi. Ma'naviy barkamol kishilar xalq takdiri va farovonligi, vatan takdiri va uning ravnaqini o'ylaydilar. Bunday kishilar mutelikda, qaramlikda yashashni istamaydilar. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda oiladagi soglom muhit - soglom mafkurani shakllantirish manbaidir deya olamiz⁹. Yurtboshimiz I.A. Karimovning «Har qaysi inson Olloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va isde'dodini avvalo o'zi uchun, oilasining, millati va halqining, davlatining farovonligi, baxt-saodati, manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur'at va samarasini hatto tasavvur ham qilish oson emas»¹⁰

⁶ Qarang: Robert Bibi. Podgotovka k krepkomu braku. -M.: Mejdunarodno`y fond obrazovaniya, 1999. - S.1.

⁷ Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekistan taraqqiyotining poydevori. -T.:Sharq, 1999. 8 b.

⁸ Qarang: Milliy istiklol g'oyalarining amal qilish tamoyillari (Tajribaviy matn). - T.: Yangi asr avlodi, 2001. 14 b.

⁹ Qarang: Ziyomammedov B. va bosh. Ma'naviyat asoslari. -T.:O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi, 2000. 173 b.

¹⁰ Barkamol avlod orzusi Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, X Saidov, R.Axliddinov. -T.: Sharq, 1999. 173 b.

, -degan soʻzlari oiladagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning naqadar muxim ekanligini yana bir karra isbot etadi.

Shuningdek, oiladan tashqari ta'lim tizimi, mehnat jamoalari, jamoat joylarida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar, davlatning ichki va tashqi siyosati faoliyatidan qaror topgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy munosabatlar majmuasi inson hayoti faoliyatining ijtimoiy va ruhi muhitini yuzaga keltiradi.

Oila va maktab birgalikda oʻquvchilarning darsdan tashqari kdoiqishlarini ragʻbatlantiradi. Masalan, hozirgi kunda respublikamizda bolalar «Yosh matematiklar», «Yosh sportchilar», «Tikuvchilik», «Zardoʻzlik», «Yosh rassomlar», «Kompyuter savodxonligi va Internet» «Kitobxonlar», «Suzish», «Badiiy gimnastika», «Yosh bogbonlar» va shunga oʻxshash koʻplab toʻgarak mashgʻulotlariga qatnashishi keng tarqalmokda. Ushbu mashgʻulotlardan asosiy maqsad, birinchidan, bolalarning boʻsh vaqtlarini toʻgʻri tashkil etish boʻlsa, ikkinchidan, oʻquvchini yoshlikdan kasbiy mahorat sirlarini egallash, mehnatga boʻlgan qiziqishlarini yanada rivojlantirish, shu yoʻl orqali ularning intellektual salohiyati, akdiy qobiliyati, hulqi-odobi, tarbiyasini ratsional yoʻlga qoʻyishdir.

Oilada farzand tarbiyasiga bu kabi yondoshuv quruq axloqiy nasihatbozlikka nisbatan koʻproq samara beradi ayniqsa, yolgʻiz bolalik oilalar va qolaversa, maktab uchun ham muqim- masala, chunki kiziqishlar boʻyicha turli-tuman toʻgaraklarni tashkil qilish ancha murakkab ish. Oʻquvchilarning darsdan tashqari vaqtini yuqorida qayd etilgan usulda tashkillashtirish ommalashgan takdirida ham baribir maktab (bogʻcha) tashkiliy vazifalarini oʻz zimmasiga oladi. Bu vazifalarning samarali natija berishi bogʻcha va maktabning oila bilan aloqasini mustahkamlashta borib taqaladi.

Xulosa qilib aytganda, oila oʻzaro hurmat, burch, ezgulik," mehr-oqibat, vijdon qonunlari asosida qurilganda sogʻlom ijtimoiy-ma'naviy muhit yuzaga keladi va oʻzining koʻp asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlariga ega boʻladi, shunda demokratax negizlarga asos solinadi, ularning talab-ehtiyojlari va qadriyatlarini shakllanadi.

Ijtimoiy muhitning navbatdagi bosqichi kishilarning tarixan shakllanishi uchun asosiy omillardan bo'lib xizmat qiluvchi, jamiyatimizning ishonchli qanoti va boshqaruv tizimining muhim institutlardan biri - mahalla.

Mahalla (arabcha «mahalla» - joy, o'rin, makon) kishilarning muayyan hududda birgalikda yashashlari tu fayl i yuzaga kelgan birligi. Mahalla yirik jamoadir. O'zini o'zi boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla halqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar va an'analariga tayangan holda ijtimoiy, ma'naviy, hukuqiy, diniy-ma'rifiy, ayniqsa ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Oilaning farovon va har tomonlama rivojlanishida, ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida mahallaning o'rni katta. Zero, o'smirlar odobni, muomala madaniyatini dastlab oilada, keyin mahallada o'rganadilar. Mahalla, avvalo, soglom ijtimoiy muhit maskanidir. Bu yerda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla axlining hulq-atvori, o'zaro munosabatlariiii adolat va xukukiy-ma'naviy mezonlar asosida' tartibga solib tur ad i. Shu ma'noda mahallani demokratiya darsxonasi, deb ham atash mumkin¹¹.

Mahalla - jamiyatimizning va davlatimizning eng asoeiy instituta, ajdodlarimizdan bizga kolgan eng oliy kadriyat. Yurtboshimiz I.A. Karimovniig e'tirof etishicha, mahalla - davlatimizning kanoti. Mahalla tarbiya o'chogi. Mahallada tarbiya ishlarini har tomonlama takomillashtirish, ayniqsa, yoshlar tarbiyasiga atroflicha yondashish maqsadida mahallalarda maslahatchilar faoliyati tashkil etildi. Maslahatchilarning asosiy vazifasi diniy-ma'rifiy va ma'naviy-axlokiy ta'lim va tarbiya ishlarini yoshlar o'rtasida zamon talabi asosida tashkil etishga qaratilgan. O'zbekiston mustaqilligi e'lon kilinishi bilan mahallalarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Konstitutsiyaning 105 moddasiga va 1993 yil sentyabrida qabul kilingan «Fukarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida» Qonunga binoai, maxallalar o'z hukuqiy maqomiga ega bo'lib, maxalliy hokimiyatning tarkibiga kiradi. Demak, mahallalar davlatimizning joylardagi muhim tayanchi¹².

¹¹ Milliy Istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. –T Yangi asr avlodi, 2002. 91 b.

¹² Mustakillik izoxli ilmiy-ommabop lug'at. ~T.:Sharq, 1998. -B. 113.

Hozirgi kunga kelib bir mahallada turli xildagi kasb-kor kishilari yashaydi. Lekin shu bilan birga, asosan xamkasblarning xonadonlari yashaydigan mahallalar xam yo‘q emas. Masalan, olimlar, shifokorlar, geologlar, harbiylar va h.k.

Insonning butun umri o‘tadigan maxallaning xususiyati shundaki, unda yashovchi har bir oila, shaxs shu jamoa ko‘z o‘ngida shakllanadi, xar bir fuqaroning hayot tarzi, uning nimalarga kodir yoki muhtojligini mahalladan ko‘proq biladigan jamoa yo‘k. Shunday ekan, farzand tarbiyasida mahalla o‘rning bekiyosligi o‘z-o‘zidan ma‘lum. 2003 yilning I.A. Karimov tomonidan «Obod mahalla yili» deb e‘lon kilinishi ham chuqur mazmup va mohiyat kasb etadi, albatta.

Mahallada yaratilgan ijtimoiy-psixologik muxit farzand tarbiyasiing saykallanishi, uning shaxs sifatida kamol topishida asosiy o‘rin egallaydi, o‘smirlar obro‘li mahalla-oqsoqollaridan hayiqib turadilar, ularning salobati hayot tajribasidan ibrat olib, o‘gitlari ta'sirida o‘zlarini nojo‘ya hatti-harakatlar ta'siridan tiyadilar.

Kimdandir hayiqmagan bola bebosh bo‘lib o‘sishi hych gap emas. Qizlar esa, hayo va iboni dastlab oilada, keyin mahallada o‘rganadilar, kattalardan dakki eshitmay deb ochiq-sochiq ko‘cha-kuyga chiqavermaydilar. Bo‘lajak kelin yoki kuyovlarning qandayligini ota-onalar mahalla keksalaridan surishtiradilar. Shu sababli «Bir bolaga yetti ko‘shny ota-onadir» degan nakd bor.

Shariat bo‘yicha har bir oila uchun o‘ng, so‘l, orqa va old tomonidagi qirqta xonadon qo‘shni maqomidadir. Qo‘shning qo‘shniga shar'iy haqqi bor. Qo‘shni musulmon bo‘ladimi, g‘ayridin bo‘ladimi, qo‘shnichilikda buning ahamiyati yo‘q¹³.

Istiqlol tufayli yangidan qadsini rostlayotgan mahallalarimiz yangacha mazmun kasb etmokda, ijtimoiy-madaniy hayotda tub o‘zgarishlar ro‘y berishda muhim omil vazifasini o‘tamokda. Tamaddunning haqiqiy darajasi mamlakatda tarbiyalanayotgan insonlar qiyofasi bilan belgilanadi. Ajdodlarimizning moziyga

¹³ Ibrohimov A. va boshqalar. Vatan tuyg‘usi. -T.: O‘zbekiston, 1996. 92,106 b.

muhrlangan faoliyat sarhadlarida bunga aniq dalillar bisyor. Soqibqiron Temur bobomizni, Navoiy, Bobur hazratlarini olaylik. Ularning kamoli uchun davrning shiddatli bo`ronlari ham to`siq bo`la olmagan. 5 yoshli Alisherning biyron she'r mutolaa qilishlari, Bobur mirzoning o`tli g`azallari, dunyoni lol qoldirgan adolatpesha Temurning 7 yoshidanoq jang sirlarini o`rganishi, ovchilik, merganlik usullarini egallab olishi haqida juda ko`p manbalarda hikoya qilinadi. Biz ana shunday fikri teran, ihtidori butun, zukko va donishmand ajdodlarning vorislarimiz. Ularning tarixda qoldirgan izlari asrlar osha sayqallanib, biz uchun ibrat maktabi bo`lib yashayveradi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq sog`lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish muhim va ustivor vazifaga aylandi. Rivojlanayotgan jamiyatimizning o`z oldiga qo`ygan oliyjanob maqsadi kelajagi buyuk davlatni barpo etish vazifasi shuni taqozo etadi.

Jismonan sog`lom, bilimli, ma'naviy barkamol, yetuk insonni tarbiyalash mavzusi sharq allomalari tomonidan chuqur o`rganilgan. Arastu, Ibn Sino, Bahovuddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro kabi ulug` allomalarning asarlari va nazariy ta'limotlarida ham yosh vujudni kamol toptirish, tarbiyalashga katta ahamiyat qaratilganligi bejiz emas.

Azaldan zukko ajdodlarimiz o`z milliyligini, ma'naviy boyligini saqlabgina qolmasdan, ezgulik, ilmu ma'rifat, mustaqillik singari ezgu g`oyalar sari intilganlar. Millatimizga xos ana shunday intilish, millatparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi fazilatlar, shuningdek, buyuk mutafakkirlar hamda ma'rifatchilar xatti-harakatlari tufayli xalqimiz har qanday sharoitlarda ham barkamol, ma'nan yetuk farzandlar tarbiyalash vazifasini yoddan chiqarmagan. Bu jarayon bevosita jamiyat rivojlanishining poydevorini mustahkamlash maqsadi bilan ham uzviydir.

Ammo bu maqsad nafaqat kundalik faoliyat mezonida balki, jamiyat va oila hayotida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o`zaro uyg`unlashtirishda ham namoyon bo`lgan va bugungi kunda ham o`ziga xos taraqqiyot yo`limizda namoyon bo`lmoqda.

Barkamol avlod - ko`nglida, qalb-qo`rida ishonch va iftixor tuyg`ular mavjlanib turgan avloddir. U nafaqat haq-huquqini, balki fuqarolik burchini ham chuqur anglaydi. Xuddi shu anglash, his qilish qaysi ilm dargohida ta'lim olmasin, qay bir sohada mehnat qilmasin, ulug` yurtning an'analariga munosib bo`lishga undaydi.

Hech shubhasiz, har qanday millat o`z farzandlarining barkamol bo`lishini orzu qiladi. Aslida barkamollik juda keng tushuncha. Tilimizning izoqli lug`atida barkamollik quyidagicha ta'riflanadi: "jismoniy va aqliy jihatdan kamolot, voyaga yetish, bekamu ko`st mukammallik holati va hokazo".

Darqaiqat, biz har qanday odamga uning nechog`lik kamolotga erishganiga qarab baho beramiz. Jumladan, barkamol shaxs, barkamol ijod deymiz. Hoyat yetuklikni esa tabiat barkamolligiga qiyoslaymiz.

Balog`at va kamolotning turli-tuman qirralari bor. Albatta, bu qirralarning jilolari bir-biridan aslo kam emas.

Davlatimizning bosh siyosati ham kelajak avlodning istiqlolini ta'minlashga, zarur shart-sharoit yaratishga, ularni yetuk insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgan. Yuzlab kollej, va litseylar, ko`plab sport inshootlari, komp'yuter va internet kabi zamonaviy texnika vositalari yoshlarimiz ixtiyoridadir. Kechagi dehhon bolasi bugun til o`rganib, Londonday joylarda o`qib yuribdi. Bularning bari tahsinga sazovordir.

Bugun yuksak cho`qqilarga erishayotgan yoshlarni kuzatib, hayratimiz ortadi. Sport arenalarida, san'at pillapoyalarida erishayotgan yutuqlaridan behad g`ururlanamiz. Har yili adabiyot, san'at, madaniyat, fan va ta'lim sohalarida kashf etilayotgan iqtidorli yoshlar Zulfiyaxonim nomidagi davlat mukofoti laureatlari, "Kelajak ovozi" g`oliblari shular jumlasidandir.

"O`zbekiston madaniyati va forumi" jamg`armasi hamda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tashabbusi bilan o`tkazilib kelinayotgan mazkur tanlovning nufuzi yildan yilga ortib bormoqda. Buni tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan yoshlar sonidan ham bilsa bo`ladi.

"Kelajak ovozi" yoshlar tanlovi - o`z nomi bilan kelajakning yorug` manzillariga intilayotgan iqtidorli yoshlarni kashf eta boshladi. Nigohlarimiz mazkur tanlovning mazmun va mohiyatiga qaratildi. Buni qarangi, bugunning yoshlari qalbida o`z yaratuvchanlik ishlari namunalariga ishonch bisyor.

Bugungi davr yoshlarini kitob mutolaasiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Kitob do`st, kitob, suyanchiq, kitob ma'naviy kamolotimiz tayanchidir. Undan ziyo olamiz, kuch topamiz. Ezgu ishlarga yuksalamiz. Kitob olamidagi buyuk kashfiyotlar, sevgan asarlarimizdagi qahramonlarning kechinmalari, ezgu ishlari qalblarimizni nurlantiradi.

San'at haqida so`z ketganda davrimiz yoshlari bu mavzuga juda yaqin munosabatda ekanligini alohida ta'kidlash mumkin. Hayotimizni san'atsiz tasavvur qilib bo`lmaydi. San'at insonni tarbiyalaydi. Kamolga yetkazadi. Inson haqiqiy san'at asarlaridan estetik zavq oladi, zavqlanish barobarida ruhiy ko`tarinkilikni ham teran his qilib ulg`ayadi. Xo`sh davrimiz yoshlari hayotida san'atning o`rni qanday ahamiyat kasb etadi, degan savol oldida bir mushohada qilib ko`raylik. Kino san'ati yoki bugungi estrada san'atining turlariga bugun har qachongidan-da yaqinroq nafas bilan yondashishmoqda. Buni davrga hamohanglik deyish ham mumkin. Kino san'ati ham xuddi shunday mazmun kasb etadi. Kutilgan maqsad esa bitta: Yurtimiz yoshlari yuksak ma'naviyat doirasida kamol topishlari darkor.

Asrimiz axborot texnologiyalari bilan hamqadam odimlamoqda. Yoshlar Axborot-resurs, axborot-kutubxona markazlaridan foydalanyaptilar. Komp'yuter saboqlaridan bahramand bo`lyaptilar. Internetga bog`lanib dunyo tamaddunidagi o`zgarishlardan bahramand bo`lyaptilar. Xorijiy tillarni o`rganyaptilar. Xususan olganda insoniyat manzillari, cho`qqilari yurtimiz yoshlari uchun katta yo`lga chiqish debochasidir.

Mamlakatimiz yoshlari ertangi kunimizga teran nazar bilan boqar ekanlar, "Men Vatanimga munosib farzand bo`la olamanmi, buning uchun yaratilayotgan imkoniyat cho`qqilariga erisha olayapmanmi", deya intilishlarini oshirib bormoqlari zarur. Xassos shoirimiz G`afur G`ulom aytganlaridek:

A'lo mamlakatning, a'lo farzandi,

Bilib qo`yki, seni Vatan kutadi...

Odamzod o`z yurtini faqat asl boyliklari uchun sevmaydi, har bir inson: "Men nechun sevaman O`zbekistonni" degan teran ma'noli savolga o`zi javob bera olishi, ona zaminining xosiyatini qalban his eta bilishi kerak. Shuning uchun Prezidentimiz "Vatan - yagonadir, Vatan - bittadir", degan g`oyani, shu mo`tabar zaminimizda yashayotgan har bir inson, avvalambor unib-o`sib kelayotgan yosh avlod ongi va tafakkuriga singdirish, uning hayotiy ehtiyojiga aylantirish muhim vazifa ekanligini takror-takror ta'kidlaydilar. Vatan ravnaqi deganda yurtimiz hayotining barcha sohalari bo`yicha rivojlanish va yuksalishi mamlakatimizning jahondagi obro`-e'tibori, yanada ortishini tushunamiz.

Bir so`z bilan aytganda, yurtimiz yoshlarining har bir vakili ertangi kunining yorug` orzulariga eng ezgu umidlar bilan boqa bilishi farz. Toki, yoshlarga bo`lgan ishonch va umid ustunlari ko`kga bo`y cho`zgan ulkan daraxtlar singari yuksalaversin.

I.2. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining qarashlarida Barkamol avlodning tarbiyasi.

Mustaqil O`zbekiston milliy ma'naviyatini rivoj toptirish va yoshlarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash hamda kamol toptirishda sog`lom ijtimoiy-ruhiy muhitning samaradorligini yanada oshirishda insoniyatning falsafiy merosi, uning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olishning ahamiyati katta.

Ijtimoiy muhitning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri haqidagi ilmiy-falsafiy g`oyalar ancha kech paydo bo`lgan bo`lsa-da, ta'lim-tarbiya masalasi insoniyatning ibtidoiy tuzumi davrida, ya'ni oilaning guruhli shakllari paydo bo`lgan davrdanoq ma'lum edi degan taxminlar bor. Unda bolaning otasi no'malum bo`lsa-da, lekin onasining kim ekanligi ma'lum bo`lgan. Shuning uchun ham nasl-nasabni xotin

tomonidan belgilash mumkin edi¹⁴. Shu sababdan bolaning tarbiyasi ona zimmasiga yuklatilgan. Insonlar ijtimoiy ong faoliyatining asta-sekin takomillashuvi, xususiy mulkning dastlabki kurtaklarining paydo bo'lishi - yakka tartibdagi oilalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Shu davrdan boshlab mehnat tarbiyaning asosiy quroliga aylana bordi.

Ijtimoiy muhit va ta'lim-tarbiya jarayonining aloqadorligi haqidagi falsafiy qarashlar Sharq falsafiy tafakkurida ijtimoiy muhitning ilk bosqichi hisoblanmish oila muhiti yaratilgach, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»dayoq ilgari surilgan edi. Mitra, Anaxita, Ardivissura, Varaxrana, Yima singari ma'buda orqali ajdodlarimiz insonlarga yaxshilik qilish, yerlarni obod qilish va serhosil ekin ekish, daraxtlarni o'stirish uchun jamoa harakati xususidagi mulohazalarni mujassamlashtirganlar¹⁵. Bundan tashqari, insonlarning farovon yashashlari va ta'lim-tarbiya olishlari uchun qulay ijtimoiy muhit yaratib berish lozimligi asarda shunday ifodalanadi: «-Ey olamni yaratgan Zot!

Ey Haqiqat!

Zamin, hammadan ko'ra baxtliroq bo'lgan dunyodagi ikkinchi joy qaer?

Axura Mazda javob berdi:

-Bunday joy bir Ashavan uy tiklagan makondir. O'sha uyda Mo'bat ro'zg'or tebratadi. Sigirlar galasi va uy bekasi, farzandlar va suruvlar yashaydi bu uyda. Sigirlar galasi yaxshi parvarish qilinadi... Tevalar¹⁶ xo'raki farovon, yaxshi itlarning rizqi serob. Uy bekasi baxtiyor. Farzandlar shodmon. Hamisha olov gurillab turadi. Tiriklikning go'zal bir hodisasi yaxshilikka qovushadi»¹⁷.

«Avesto»da inson mehnati tufayli barcha yomonliklardan, yovuzliklardan qutulishi mumkin, degan ulug' g'oya yotadi¹⁸. «Avesto» tadqiqotchisi A.O.Makovelskiy «Inson fikri, so'zlari va ishlariga ikki qarama-qarshi kuch: Voxu Mana («Ezgu fikr») va Ako Mana («Yovuz fikr») ta'sir ko'rsatadi»¹⁹, -deydi.

¹⁴ Qarang: JJ. Bachofen. Das Muttenecht. Eine Untersuchung u'ber die Gynaikokratie der alten Welt nach ihren religio`gen und rechtlichen Natur. Stuttgart. 1861. 17 6.

¹⁵ Xasanboeva O., Xasanboev J. X.Hamidov. Pedagogika tarixi. -T.: Y'qituvchi. 1997. 9-12 b.

¹⁶ Tuyalar.

¹⁷ Maxmudov T. «Avseto» haqida. -T.: Sharq, 2000. 14 6.

¹⁸ Braginskiy I.S. Iz istorii tadjikskoy i persidskoy literaturmG`G` Izbr. raboto` -M.: Nauka. 1972.

¹⁹ Makovelskiy A.O. Avesto. Baku. AN Azerb. 1960. -S.18.

Barcha fikrlar, soʻzlar va ishlar negizida aslida ezgulik va yovuzlik (Yasna 30) yotadi. «Yaxshi fikr» deganda ilohiy qonun ruhidagi yaqin kishisiga mehribon boʻlish, muhtojlarga koʻmaklashishga, yovuzlikka qarshi kurashishga doimo tayyor turish, kishilarning baxt-saodati uchun harakat qilish, ahillik va doʻstlik, totuvlikda yashashga intilish ruhidagi niyatlar va fikrlar musaffoligi tushunilgan. Inson oʻz fikr-hayolida boshqalarga hasad qilmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi dargʻazab boʻlmaydi va boshqa jaholatlarga berilmaydi. Chunki bunday holatda inson yaxshi niyatini yoʻqotadi, burch va adolat haqida unutadi va nojoʻya harakatlar qiladi²⁰.

Xulosa qilib aytganda, «Avesto»da insonning barkamol boʻlib yetishishida uning soʻzi, fikri, ishi birligiga katta eʼtibor qaratilgan.

Bu axloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab undan keyin yaratilgan barcha maʼrifiy asarlarga asos boʻldi, desak xato qilmagan boʻlamiz.

Sharkda Arab xalifaligi davrida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy oʻzgarishlar, yagona islom dinining tarkib topishi madaniy, maʼnaviy hayotiga ham taʼsir etdi. VII-VIII asrlarga kelib Sharqda Xalifa Xorun ar-Rashid (786-833) va uning oʻgʻli Maʼmun davrida aniq fanlar rivojlandi.

Markaziy Osiyo xalqlarining shonli tarixidagi eng yorqin sahifalaridan biri boʻlgan ilk oʻrta asrlar haqli ravishda Uygʻonish davri deb ataladi. Chunki bu davrdagi ilm-fan, madaniyat, sanʼat, adabiyot, falsafiy, diniy fikrlar taraqqiyoti insoniyat tafakkur xazinasiga qoʻshilgan katta hissa boʻlib, asrlar mobaynida necha-necha avlodlarimizni oʻzining sermazmunligi, universalligi va insonparvarligi bilan hayratga solib kelmoqda. Xususan, Oʻzbekistonning bugungi mustaqillik sharoitida oʻtmish ajdodlarimizning gʻoyalari, namunali ishlari muhim ahamiyat kasb etmokda.

IX-XSh asrlarda Markaziy Osiyoda musulmonlar yashaydigan hududlarda diniy-falsafiy oqim-tasavvuf taʼlimoti keng tarqaldi²¹. Soʻfiylik butun Sharq

²⁰ Qarang: Pedagogika tarixi: (Pedagogika oliy oʻquv yurtlari va dorilfununlar talabalari uchun oʻquv qoʻllanma) Xoshimov H. va boshqalar.-T.: Oʻqituvchi. 1996. 17 b.

²¹ Petrushevskiy I.P. Islam v Irane v VP-XV vv. -L, 1966. -S. 315.

ma'naviy hayotida sog'lom ijtimoiy muhitda voyaga yetgan komil inson haqidagi g'oyalarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi²².

So'fiylikdagi ruhiy kamolotga erishishning asosiy yo'llari shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat kabi to'rt bosqichdan iborat bo'lgan. Garchi tasavvuf turli xil oqimlar, yo'nalishlar, suluklardan iborat bo'lsa ham, ularning markazida inson va uning ma'naviyati, ruhiyati, axloqiy pokligi, fazilatlari, bu dunyoda yashashdan maqsadi, pirovardida esa, uni komil inson qilib tarbiyalash masalalari turadi²³.

Tasavvuf insonni ma'naviy kamolotga yetkazishni maqsad kilib olgan. Uning aqidalariga ko'ra «Komil inson... odamzod orzu qilgan jamiki ezgu xislatlarni ifodachisi, u go'yo mutlaq iloh bilan insoniyat o'rtasida vosita bo'luvchi muqaddas xilqat. Bunday martabaga musharraf insonlarni valiullox, qibla, qutb, g'avs (madadkor), avtod (ustunlar), abdol (badal qilingan) deb ham ulug'laganlar. Mu'tabar kitoblarda naql kiladilarkim, dunyo shunday zotlar tufayli barkaror va osoyishtadir»²⁴.

Musulmonlarning muqaddas kitobi «Kur'on»ning «Zumar» surasining 9-oyatida shunday deyiladi: «Ayting: Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bulurmu?». Darhaqiqat, faqat aql egalarigina pand-nasihah qila olurlar²⁵.

XII asr oxiri - XIII asrning birinchi yarmida arablar juda katta hududlarning - Hindistonning shimoliy g'arbidan tortib, Afrikaning shimoliy qirg'oklarigacha bo'lgan yerlarni bosib oldilar va katta davlat-xalifalik tuzdilar. Shu sababli, jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy va madaniy muhitining talabidan kelib chiqqan xolda Markaziy Osiyo xalqlarining fan va madaniyati yangi sharoit va extiyojlar asosida rivojlantirildi. Masalan, savdo va tashqi aloqalarni mustahkamlash borasida karvonlarning kechalari cho'llarda adashmay yurishlari uchun sharq, g'arb, shimol, janub tomonlarni bilish, yulduzlardan, ya'ni qutb yulduzidan yo'lni

²² Xasan Xoja Nisoriy. Muzakkiri axbob. -T.: 1993; Sufi Olloyor. Sabotul ojizin. -T.: 1991; Axmad Yassaviy. Devoni hikmat. -T.: 1992; Abul Muxsin Muxammad Bokir ibn Muxammad Ali. Baxouddin Balogardon. -T.: 1993; Risolayi hazrat Azizon. Xoja Ali Romitoni. -Buxoro. .1994; Shayx Najmiddin Kubro. Sharxe risolaye odobul zokirii. -Urganch. 1997; Husayn Voiz yoxud javonmardlik tariqati. -T.: 1994; Xazrati Xoja Ubaydullo Axror Risolayi volidiya. -T.: 1991; Xoja Orif Ar-Revgariy. Orifnoma. -T.: 1994; Mahmud As'ad Jo'shon. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. -T.: 1998; Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. -T.: 1999.

²³ Karang: Ne'matova J.O. Yassaviylik va uni ijtimoiy-falsafiy fikr rivojidagi o'rni. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. -T.: 2001. 66.

²⁴ Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. -T.: Yozuvchi, 1994. 143-144 b.

²⁵ Qur'oni Karim. -T.: G'afur G'ulom, 1992. 33

aniqlash kabi extiyojlar tug'ildi. Davr va ijtimoiy muhit extiyojlari negizida falakiyot, matematika, tibbiyot xamda ijtimoiy fanlar va qadriyatlarimiz rivojlandi. Ijtimoiy muhitning shakllanishi va rivojida ajdodlarga xos oliy, o'lmas qadriyatlarning xam ahamiyati kattadir.

Qadriyat bu jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa, hodisa va voqyealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, obida-yodgorliklar, go'zallik, axloqiy xislat va fazilatlar, an'ana, urf-odat, udum va boshqalar qadriyat hisoblanadi²⁶. Inson butun umri davomida, son-sanoqsiz qadriyatlar olamida yashaydi²⁷. Ana shu milliy qadriyatlarimizdan biri O'rta Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy muhit va ta'lim-tarbiyaning aloqadorligi haqidagi qimmatli fikrlaridir.

Forobiy (Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uslug' Tarxon Forobiy)ning fikricha, insonning ruhiy va jismoniy holati tashqi omillar (ijtimoiy va tabiiy muhit) ta'siriga bog'liq. U ijtimoiy muhitning inson tafakkuri va taraqqiyotiga ta'sir doirasini uning jamiyatda ijtimoiylashuvida deb biladi. «Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi»²⁸, -deb uqtiradi Abu Nasr Forobiy.

Forobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi, deb hisoblaydi. Bunga ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin, chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni aqliy va axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-

²⁶ Nazarov. Aksiologiya: Qadriyatlar falsafasi. -T.:Ma'naviyat. 1998. 122 b.

²⁷ Falsafa: qisqa izohli lug'at. -T.: Sharq, 2002.

²⁸ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T. 1993. 83-184 b.

qoidalarini to'g'ri bilib oladi va hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan to'g'ri munosabatda bo'ladi.

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Forobiy ta'lim va tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. Ta'lim degan so'z insonga o'kitish. tushuntirish asosida nazariy bilim berish. tarbiya - nazariy fazilatni. ma'lum xunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulk normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir. deydi olim. Allomaning ta'kidlashicha, «Ta'lim - degan so'z xalkdar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalkdar o'rtasida tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir»²⁹.

Forobiy nazariy bilimlarni egallashga kirishgan har bir kishi hulq-odobda ham qay darajada pok bo'lishi kerakligini «Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida»gi risolasida shunday ta'riflaydi: «Falsafani o'rganishdan avval o'zingizni xirs-havaslardan shunday tozalashingiz lozimki, sizda maishiy va shahvoniyat kabi noto'g'ri tuyg'ularga emas, balki kamolotga bo'lgan hirs-havas qolsin.

Bunga xulq-axloqni faqat so'zdagina emas, balki haqiqatda (amalda) tozalash orqali erishish mumkin. Shundan so'ng xato va adashishdan saqlovchi, haqiqat yo'lini tushunib olishga boshlovchi (notiq - so'zlovchi, fikrlash ma'nosida) nafsni, jonini, ruhini tozalash zarur»³⁰.

Forobiy axloqiy fazilatlar deganda bilimdonlik, donolik va mulohazali bo'lish, vijdonlilik, kamtarinlik, ko'pchilik manfaatini yuqori qo'yish, haqiqat, ma'naviy yuksaklikka intilish, adolatlilik kabi xislatlarni tushunadi. Ammo bu xislatlarning eng muhimi har bir insonning bilimli, ma'rifatli bo'lishidir. Shuning

²⁹ Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. Risolalar. -T.:Fan, 1975, 76 b.

³⁰ Usha asar. 23-24 b

uchun ham Forobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog‘liq holda, tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi. Bundan biz Forobiyning axloqni xulq me'yorlari ifodasi sifatidagina emas, balki kishilarning aqliy faoliyatining natijasi sifatida ham talqin etganligini ko‘ramiz.

Forobiyning ta'lim-tarbiya yo‘llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go‘zal fazilatlar ikki yo‘l -ta'lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta'lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug‘ma fazilat - nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta'lim so‘z va o‘rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi. Har ikkalasi birlashsa, yetuklik namoyon bo‘ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko‘nikmalarni qay darajada o‘rganganligiga qarab paydo bo‘ladi, deb ko‘rsatadi.

Forobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o‘rganiladi, kasb-hunarlariga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi. Bu muhim vazifa tajribali tarbiyachilar tomonidan ta'lim-tarbiyaning turli metodlari yordamida amalga oshiriladi.

Forobiy ta'lim-tarbiya ishlarini ikki yo‘l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi. «Amaliy fazilatlar va amaliy san'at (kasb-hunar) lar va ularni bajarishga odatlanish masalasi»ga kelganda, bu odat ikki yo‘l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi - qanoatbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so‘zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g‘ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi yo‘l (yoki usul) - majbur etish yo‘li. Bu usul gapga ko‘nmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan qo‘llaniladi. Chunki o‘z istaklaricha, so‘z bilan g‘ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o‘rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo‘ladi. Kasb-hunarlarini va juz'iy san'atlarni egallashga intilish bo‘lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad - ularni fazilat egasi qilish va san'at ahllariga aylantirishdir³¹.

³¹ Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv qaqida. Risolalar. -T.:Fan, 1975, b. 77-78.

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni har tomonlama kamolga yetkazish maqsadini ko'zlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Forobiy pedagogik ta'limotning asosida komil insonni shakllantirish, insonning o'z mohiyati bilan ijtimoiyligi, ya'ni faqat jamiyatda, o'zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashi yotadi.

Ibn Sino (lot. Avitsenna, 980 - 1037 y.) o'zining «Shifo kitobi» va «Tabiat durdonasi» asarlarida jismlarning o'zaro aloqadorligi va bir-biriga ta'siri tushunchalari orqali, Oy, Quyoshning odamlarga, hayvonot va o'simliklar olamiga ta'siri, yomg'ir, qor, do'l, sabzavotlar pishishining tezlashuvi, kishilar tanasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarning asl sabablarini yoritib bergan.

Ibn Sinoning fikricha, inson omiliga tabiiy va ijtimoiy muhitning ta'siri alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, uning taraqqiyotiga jonli mushohada va ijtimoiy tabaqalarning ta'siri muhim ekanligi qayd etilgan.³² Voqyelikni ma'naviy o'zlashtirish inson zotiga xos. Insonning hayvonlardan farqi shundaki, Olloh unga aql in'om etgan. U tufayli inson ezgulikni yovuzlikdan, intellektual yetuklikni yolg'on-yashiq, adashishdan, do'stni dushmandan ajrata oladi. Akd nuri insonni tasodifiy kuchlar ta'siridan ozod shaxsga aylantiradi. Akl «donishmandlik tarozisi»dir. Bilish jarayonida sezgi a'zolari va ularga tayangan mushohada aqlning eng yaqin ko'makchilari vazifasini bajaradi. Mantiq ilmi vositasida inson bilmagan narsasini oldin bilib olgan narsasi orqali bilib boradi, to'g'ri tafakkur yuritish ko'nikmalarini hosil qiladi.

Ibn Sino fikrlarining asl mohiyati shundaki, inson hayot taraqqiyoti davomida olgan barcha bilim, ko'nikma va malakalarini ijtimoiy muhit ta'sirida jonli voqyelikka aylantirib boradi.

Shu kabi fikrlarni biz **Abu Rayhon Beruniy** (973-1048 y.) asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Beruniyning ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan bog'liq

³² Qarang: Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. K.1. -T.: Yozuvchi. 1996.

ta'limotida mehnat, odob-axloq, ta'lim-tarbiya, kasb-hunar, ilm-ma'rifat uzviy mushtaraklikda, dialektik bir butunlikda tahlil etilgan. Inson amaliy faoliyatining biron-bir sohasi ularning o'zaro ta'sirisiz amalga oshmaydi, deb yozgani ham bejiz emas, albatta³³.

Beruniyning ma'naviy-axloqiy ta'limotida ikkiyuzlamachilik, yolg'onchilik, tuhmat, qo'pollik, o'g'rilik, bir-birining payiga tushish, xudbinlik singari yomon xulklar toifasiga kiritiladi. Rostlik, odillik, adolat, bular Beruniy fikricha, yuksak ma'naviyat, go'zal odob-axloq belgisidir. O'z zararining hisobiga bo'lsa-da, rost gapir, haqiqatdan yuz o'girma, har bir narsaga odilona va xolisona yondash, deb ta'lim beradi va o'zi mazkur g'oya va ta'limotlarga bir umr sodiqlikning ibrat-namunasiga aylanadi³⁴.

Beruniyning fikricha, insonparvarlik - kishilarning ma'naviyat darajasi, u o'zida ijobiy axloqiy xislatlarni tarbiyalay olishi bilan ham bog'liq. Aqlli odam faqat o'tkinchi bo'lmagan aqliy ishlar, qadriyatidan lazzatlanadi. Insonning ma'naviy qiyofasi va turmush tarzi esa uning o'z his-tuyg'ularini qanday boshqara olishi bilan bog'liq.

Abu Rayhon Beruniy insonga tabiatning gultojisi deb qarar ekan, har bir inson aql-zakovatli, yuksak axlokdi, bilim-ma'rifatli bo'lishi lozim deydi. Uning hamma asarlarida inson kamoloti uning tafakkurining rivojlanishi, sog'lom va jismonap baquvvat bo'lishiga bog'liqligi ta'kidlanadi. Beruniyning aqliy tarbiya haqidagi qarashlari uning ilm olish, bilish jarayoni haqidagi fikrlarida o'z ifodasini topadi.

Beruniy ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o'quvchilarni zeriktirmaslik, yangi mavzularni qiziqarli, asosli, ko'rgazmali bayon etishni tavsiya etadi. Beruniyning fikricha, aqliy tarbiyani amalga oshirishdan maqsad barkamol insonni tarbiyalashdir. U barcha salbiy illatlarning kelib chiqishidagi asosiy sabab ilmsizlik, deb tushuntiradi. Beruniy o'z asarlarida jamiyat ravnaqi ma'rifatning rivojlanishiga bog'liq, degan g'oyani ilgari surgan.

³³ Qarang: Abu Rayhon Beruniy. qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. T.: Fan, 1989, 40 b

³⁴ Qarang: Abu Rayhon Beruniy.Hindiston. -T.: Fan, 1966, 25 b.

Ikkinchi Sharq Uygʻonish davri madaniyati va ma'naviyati, birinchi navbatda, **Amir Temur** nomi va faoliyati bilan uzviy bogʻliq. Amir Temur islom dinini, shariat qonun-qoidalarini xurofot, bid'at, mutaassiblik, johillik, razolat, shakkoklik, diyonatsizlik kabi illatlardan astoydil turib himoya qilgan. Ilmiy, falsafiy, tarixiy manbalarda, hozirgi zamon ilmiy tadqiqotlarida Amir Temurning Movarounnahr, Xurosonning bir necha ming yillik ilm-fan, madaniyati, tarixi, urf-odatlarini, an'analari, milliy qadriyatlarini chuqur bilganligi va astoydil hurmat qilganligi haqida aniq ma'lumotlar mavjud³⁵.

Sohibqironning ma'naviyat va ma'rifat, din, odob-axloq haqidagi ta'limoti asoslari, murakkab va serqirra hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati uning «Tarjimai hol» va «Temur tuzuklari» da chuqur bayon etilgan. Amir Temurning adolat, qadr-qimmat, or-nomus, burch, mas'uliyat, vijdon, imon-e'tiqod, halollik, fidoiylik singari ma'naviy-axloqiy qadriyatlar haqida necha-necha avlodu ajdodlarga dastur va yoʻl-yoʻriq boʻlib xizmat qiladigan ta'limoti uning «Adovat emas, adolat yengadi», «Adlu ehson bilan jahon gulshani obod boʻladi», «Yaxshilarga - yaxshilik qildim, yomonlarni esa oʻz yomonliklariga topshirdim», «Oʻz saltanimni shariat bilan bezadim» kabi oʻgitlarida oʻz ifodasini topgan.

Amir Temur nabirasi **Ulugʻbek** Movarounnahrning qariyb qirq yillik hukmdori sifatida ilm-fan, madaniyat va ma'rifat rivojlanishiga alohida e'tibor bilan qaraydi, insoniyat ma'naviy-axloqiy, axloqiy qarashlari va ta'limotlari rivojiga ham beqiyos hissa qoʻshadi.

Ulugʻbek ta'limotida ilm inson ma'naviyatining asosi ekanligi haqidagi gʻoya yetakchi oʻrin tutadi. ilm insonni gʻaflat uyqusidan uygʻotadi, fikrini teranlashtiradi, tafakkuripi oʻtkirlashtiradi. Inson ilm-ma'rifat yordamida ulugʻlar darajasiga yetadi.

Ulugʻbekning fikricha, odob va axloq inson ma'naviyati va ma'rifati kamolotida katta oʻrin egallaydi. Insonlar orasidagi oʻzaro munosabat,

³⁵ Qarang: Gʻoyibov N. Amir Temur davri ma'naviyati: Badia. -T.: Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanat nashriyoti, 2001.

odamgarchilik, mehr-muhabbat, do'stlik, birdamlik, ahillik asosida yashash va faoliyat ko'rsatish aqliy-axloqiy tarbiyaga ko'p jihatdan bog'likdir.

Ulug'bek jasurlik, mardlik, chidamlik, baquvvatlik masalalariga alohida e'tibor bilan qaraydi. Ruhan va jismonan baquvvat, aqlan yetuk, axloqan barkamol kishilar, olimning fikricha, o'z yurtini, Vatanini dushmanlardan himoya qila oladigan, xalqparvar bo'lib shakllanadi.

Najmiddin Kubro (1145-1221)ning maqsadi odamlarni ham jismonan, ham aqlan, ham ruhiy-ma'naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash bo'lgan. U tariqat va futuvvatni bir-biriga qo'ttirdi; axloqiy poklik, mardlik, hojatbarorlik g'oyalarini targ'ib etdi. Ilohni sevish bilan yaxshi insonlarni sevishni birga olib qaradi, nafsni qattiq mazammal etib, ya'ni qoralab, ulug' taqvo piri degan nom chiqardi. Tasavvufda «xushyorlik» (sahv) maslagini tanlab, «behud» - devonalikni inkor etadi. U insonni «kichik olam» deb. uning kamoloti cheksiz ekanini ta'kidlayli. tasavvufda oriflik rutbasini (martabasini) oldinga surib, maqomatning, ya'ni darajalarga ajratishning o'nta bosqichini joriy etgan olimdir: xilma-xil ranglar - moddiy olam o'zgarishlari. rangsizlik - xudo olami belgisi, -deydi u.

Xo'ja Axmad Yassaviy (XI asrning o'rtalari) insonni ta'lim-tarbiyasida uni asl komillikka eltadigan din, iymon, xudo yo'lida fidoiylik, e'tiqodda sobitlik, halollik, poklik g'oyalari ekanini ta'kidlaydi.

Yassaviy insondagi yomon illatlarni nafs bilan bog'laydi va unga qarshi kurash lozimligini uqtiradi. Nafsni tiyish, mol-dunyoga hirs qo'yish, ta'magirlik, badnafslilik nokaslik, nodonlik, jaholat va razolatni qattiq qoralaydi. Nafsni tarbiyalash nafaqat insonning shaxsiy xarakteri, balki ijtimoiy muhitga ham salmikli ta'sir etishini ta'kidlaydi. Uning ta'rificha, nafs «yabon qushdek ko'lga ko'nmas» bir narsa. Bu «kush» o'z xoxishicha «parvoz» etaversa. odamni kundankunga odamiylikdan chikaraverali. azim gunoxlarni kilishga sababchi bo'lib. badnom etadi. chunki nafs domiga tushgandan keyin kishi xech narsadan tap tortmaydi. xarom-xarishdan xazar etmaydi. boshkalar xisobiga bo'lsa ham yaxshi yashashni o'ylaydi. Okibatda u zolim. berahm. riyokor bo'lib koladi.

Faylasuf shoirni komil insonlikka yetishish boskichlarida kishi intilishlariga halaqit beradigan barcha to'siqlar, ya'ni shayton vasvasasi tufayli yuzaga keladigan barcha illatlar g'azablantiradi. Ulardan biri adolatsizlikdir.

Mutafakkir g'oyalarining asosiy mazmuni, «bu dunyoning dog'larini insonga yuqtirmaslik», uning «Olloh yaratgan chog'idagi musaffoligini saqpash», bir so'z bilan - komil, barkamol insoi qiyofasiga erishish. Umuman, Yassaviyning barkamol inson haqidagi g'oyalari yosh avlodni tarbiyalashda muhim dastur sifatida xizmat qiladi.

Bahouddin Naqshbandning ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari g'oyat qadrlidir. U barkamol insonni tarbiyalash dastlab odobdan boshlanishini ta'kidlab shunday degan edi: «Adab hulqni chiroyli qilish, so'z va fe'lni soz qilishdir»³⁶. Adab saklash - muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxtining urug'i hamdir. Agar adabdan ozgina nuqsonga yo'l qo'ysang ham nimaiki qilsang ham, beadablik ko'rinadi. Zero, beadablar yashaydigan ijtimoiy-ruhiy muhit nosog'lom bo'lib, nafaqat insonlarga, balki boshqa jonzotlarga ham salbiy ta'sir etishi tabiiy. Odam o'zini bir xil sifat va ko'riishda olib yurishi lozim, toki odamlarda unga tasarruf (ta'sir qilish) ta'masi paydo bo'lmasin.

Yana bir fikr: «Niyat - kasb qilib topadigan narsa emas, balki, u g'ayb olamidandir. Niyatning haqiqati ixtiyor ostida emas. Agar niyat yo'q bo'lsa, umid natija bermaydi». Sabr va chidamda nog'ora kabi bo'lmok lozimki, u kanchalik shapaloq yemasin, biroq o'z adabiga xilof ovoz chikarmaydi». Bahovuddin Naqshband o'z pedagogik faoliyati davrida mehnat va hunarga alohida e'tibor bergan. Madrasaga qabul qilinadigan bolalardan eng oldii: «Siz Madrasaga qabul qilingansiz, qaysi hunarni bilasiz», -deb so'ragan. Hunarsiz o'quvchilarni biror-bir hunar o'rganishga da'vat etgan, unga yetarli muhit yaratib bergan, so'ngra islom ilmini o'rganish lozimligini ta'kidlagan³⁷. **Alisher Navoiy** (Nizomiddin Mir Alisher Navoiy, 1441-1501 y.)³⁸ ning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari Sharqda

³⁶ Muminov I.M. Iz istorii razvitiya obshestvenno-filosofskoy mo'sli v Uzbekistane. T. 1957. -S.4

³⁷ Qarang: Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. K.1. -T.: Yozuvchi. 1996.

³⁸ Alisher Navoiyning bizgacha 30 dan ortiq badiiy va tarbiyaga oid boy adabiy va ilmiy msrosi etib kelgan. "Mszon ul-avzon" ("Vaznlar o'Ichovi") (1492). "Lisonut - tayr" (1498). "Muhokamat-ul-ul-lug'atayn"(1499)."Mahbub-ul-qulub"(1500). "Xazoyinul-maoniy" (1491-1498). "Badoyi ul-bidoe (1500). "Xoloti Sayid Hasan

keng tarqalgan vahdat ul-vujud (borliq va xudoning birligi) ta'limotiga asoslangandir³⁹. Bu ta'limotga ko'ra, borliq, narsa va hodisalar, shu jumladan, inson ham, Olloh tomonidan, yaratilgan, Olloh tabiatda namoyon bo'ladi, zuhur etiladi⁴⁰. Navoiy talqinida inson boshqa mavjudotlar ichida a'losi, ularning gultoji hisoblanadi. Zeroki u, sezgi va hissiyotlari orqali tabiat va uning sir-asrorini bilishga qodir, ya'pi inson uni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhitga ta'sir etish imkoniyatiga ega. Bu esa faqatgina ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi.

Navoiy o'zining «Xamsa» dostonida inson ta'lim-tarbiyasida ijtimoiy muhitning o'rni muhim ekanligini ta'kidlaydi. Bu esa, mehnatsevarlik, poklanish, halollik, imon-e'tiqodli bo'lish orqali amalga oshishi alloma tomonidan ilmiy asoslab beriladi. Uning «Mahbubul-qulub» asarida, inson va uning eng yaxshi fazilatlarini tasvirlab, komil inson timsolini yaratdi. Asarda u insonni komillikka eltuvchi yagona vosita - bu sabr. «Sabr, - deydi u - achchiq, ammo foyda keltiruvchi, u qattiq, ammo ziyon-zahmatlarni daf etuvchi. Sabr -nasihatgo'y, achitib gapiradigan, kishi tabiati undan ozor chekadi, lekin amal qilgan oxirida murodiga yetadi. Sabr - tabib, badxo'r dori, bemor undan ozor tortadi, ammo so'ngida sog'liqqa erishadi⁴¹».

Alisher Navoiy qarashlarini xulosalab shuni aniq aytish lozimki, ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-ruxiy muhit faqatgina insonning o'z xususiyatlari sabr asosidagina yaratiladi. zero inson har narsaga qodir. Agar inson axloq, sabr tushunchalaridan yiroq bo'lsa, aytish lozimki, uni o'rab turgan ijtimoiy muhit shu insonga xos bo'ladi.

Nosir Xisrav⁴² (1044-1088) ta'limotida ta'lim-tarbiya jaryonida ijtimoiy muhytning o'rni haqidagi g'oyalari kattalarga izzat, kichiklarga shafqat, ota-onaga xizmat, do'stlik, har bir ishni ilm va akl-zakovatga suyangan holda bajarishga da'vat, jaholat va razolatni la'natlash g'oyalari kuchlidir.

Ardasher"(1490). "Majolisun-nafois" (1491). "Nasoyimul - muhabbat"(«Muhabbat shabadalari», 1496). "Vaqfiya"(1482). "Nazmul-javohir" (1485). "Tarixi anbiyo va hukamo" («Payg'ambarlar va podsholar tarixi», 1488). "Siroj ul-muslimin" («Musul.monlik nuri», 1488) va boshqa asarlar muallifidir.

³⁹ Qisqa falsafiy lug'at.-T.: Sharq, 2002.

⁴⁰ Navoiy A. Mahbub ul-qulub. -T.: 1989. -B» 301.

⁴¹ O'sha asar. -B. 304.

⁴² Nosir Xisravning bizgacha "Saodatnoma". "Rushinoma". "Safarnoma". "Musofirlarning y'yl ozuqasi". "Birodarlar xoni" "Vanjixiddin". "Kushoshi va raxoshi" kabi arab va fors tillaridagi she'rlari va "Saodatnoma" asari etib kelgan.

Nosir Xisrav qarashlarining asosiy mohiyati shundan iboratki, ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining imkoniyatlari hisobga olinishi alohida ahamiyatga egadir. Chunki tarbiyalanuvchi ham tabiiy, ham ijtimoiy jihatdan ta'lim-tarbiyaga xohish bildirmas ekan, uni majburan biror-bir hunarga o'rgatish mutlaqo mumkin emas. Bu fikrni bugungi kunga kelib rossiyalik faylasuf olim V.V.Tarasenko yanada boyitdi. V.V.Tarasenkoning xulosasiga ko'ra, bilish jarayoni imkoniyatlar bilan chambarchas bog'liq va bu aloqadorlikda olamning (muhitning) namoyon bo'lishini ta'kidlaydi hamda Nosir Xisravning g'oyalarini yanada mukamallashtirib imkoniyatlarning uch turini ajratib ko'rsatadi. Ular a)vizual imkoniyatlar - ko'z orqali ko'rish, b)tana imkoniyatlari - tananing tashqi muhitga (ijtimoiy va tabiiy) nisbatan moslashuvi darajasi va v)til imkoniyatlari - ayrim raqamli semiotik tizim, muhit ichidagi imkoniyatlardan iboratdir⁴³.

Xo'ja Abdulholiq G'ijduvoni (1103-1179) o'z ta'limotida «Odam halol mehnat bilan yashashi lozim. Halol yegil va shubhadan parhyez etgil, ya'ni halolligi shubhali ovqatdan qo'l tortgil», - deydi⁴⁴.

Ma'naviy-ruhiy kamolotga erishish shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlaridan iboratdir. Shariatsiz tariqatga kirib bo'lmaydi va tariqatsiz haqiqatga erishilmaydi⁴⁵. Shariat-nazariya, tariqat-amaliyotdir. Haqiqat-maqсад, tariqat-uslub, faoliyat shaklidir. Ta'limotda «Shariat-yong'oqning po'chog'i bo'lsa, tariqat po'choq ichidagi mag'izdir», «Shariat-yer, tariqat mazkur yerda ungan daraxt, haqiqat esa shu daraxtning mevasi», «Tariqat-fano, ya'ni o'zidan kechish, haqiqat-baqa, ya'ni botil (buzilgan, behuda ishlardan kechib haq ishlarga bog'lanmoq), «Shariat-qonun, tariqat-yo'l», «Qonun» vujud va qalbni tarbiyalaydi. «Yo'l ko'ngilni poklab, ruhni nurlantiradi»⁴⁶, kabi ta'riflar ham mavjud.

G'ijduvoni qarashlarining asl mohiyati inson ham zohiriy, ham botiniy bilimlarga faqat halollik, mehnatsevarlik orqaligina erishadi. Zero insonni o'rab turgan muhit uning qo'li bilan bunyod etiladi.

⁴³ Tarasenko V.V. Poznanie kak fraktalnoe blujdenie v mire WWW.Zhurnal.ru peregodavariacii.htm. Proekt granta pri podderjke RFFI: gant № 98-06-80282.

⁴⁴ Navro'zova G.N., Sharipova O.T. Abdulxoliq G'ijduvoniy komil inson tarbiyasi xaqida. -Buxoro: 1999. 716.

⁴⁵ Eroydin S. Tasavvuf va tariqatlar. -Istanbul. 1981. 158-159 b.

⁴⁶ Qarang: Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. K.1. -T.: Yozunchi. 1996. Shayx Aziziddin Nasafiy. Komil inson G` N.Komilov tarjimai. -Turkiston. 2000. 1-avgust.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Tasavvuf axli sig'ingan ideal - komil inson aslida halq ideali, adabiyot ideali edi. Tasavvuf shayxlari, zulm va qorong'ulik lashkariga qarshi ma'rifatni qurol qilib olgan. Komil inson tushunchasi o'rta asrlarda ishlab chiqilgan bo'lib, musulmon Sharqida asosan islomiy nuqtai nazardan ga'riflab kelingan.

G'azzoliy (Abu Hamid Muhammad Ibn Muhammad al-G'azzoliy, 1059-1111) o'zining «Tahofut ul-falosifa» («Falsafaiing raddiyasi») asarida Abu Nasr Forobiy va Ibn Sinolarning islomiy ilmlarini, xususan, Qur'oni Karimni inson aqpiy bilimlari tarozisi bilan o'lchashlarini qoralab, insonlarning aqliy bilimlarini Qur'on ta'limoti asosida o'rganish kerak, degan, «Ihiyoi ulum ad-din» asarida bilish insonniig dilida yuzaga keladi, u insonning dilida mujassamlanadi, degan fikrga keladi.

«Dil, -deydi imom G'azzoliy, - bu ilohiy ne'mat, uni oddiy jismiy yurak ma'nosida tushunmaslik lozim. Jon, deb davom etadi yapa, -Olloh singari, olamdan tashqarida, olam esa - Olloh tomonidan yaratilgan»⁴⁷

G'azzoliy o'z asarlarida tasavvuf ta'limotiga ham katta qiziqish bilan qaragan. U o'zining «Ayuh-al-valad», «Ixya ulum ad-din» kabi, asarlarida tasavvuf ilmi to'g'risida o'z qarashlarini bayon etgan. U tasavvufni kalom ta'limoti bilan birlashtirish yo'lidan bordi. Bu bilan u amalda islom ilohiyotchisi sifatida g'oyaviy kurash maydoniga chikdi.

G'azzoliyning qarashlaricha komil inson tarbiyasi faqatgina g'oyalar orqali amalga oshishini ilgari suradi. G'azzoliy inson yetukligini uning borliqni bilish insonning dilida yuzaga keladi va dilida mujassamlanadi, degan qarorga keladi.

Sharq allomalarining ijtimoiy muhit va ta'lim-tarbiyaning aloqadorligi haqidagi qarashlari bilan fandagi asosiy xizmatlari shundan iboratki, ular muhit tushunchasidan foydalanmagan holda, inson ongining taraqqiy etish sabablari, shu jumladan, inson bilishining gnoseologik jihatlarini ishlab chikdilar.

⁴⁷ Qarang: Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloki. K.1. T.: Yozuvchi. 1996.

XVI-XVIII asrlarda ham Turkistonda madaniy-ma'naviy yuksalish an'analari davom etdi. Turdi, Boborahim Mashrab, Mujrim Obid, Shermuhammad Munis, Muhammad Sharif Gulxapiy, Muhammad Rizo Ogahiy, Mirzo Abdulqodir Bedil kabi fan arboblari va atoqli shoir, yozuvchilar asarlarida o'sha davrning ma'naviyati va ma'rifati haqidagi qimmatli fikrlari keltirilgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonning madaniy-ma'rifiy hayotida ma'rifatparvar va jadidchilik harakati o'chmas iz qoldirgan. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lgyun, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, So'fizoda, Tavallo singari xalqimizning faylasuflari, adiblari, davlat va siyosat arboblari xalqni mustamlakachilik va qoloqlikdan xalos etishning yagona yo'li ma'rifatda deb bilganlar. Ular Turkistonning mustaqilligini ta'minlash, mahalliy millatlarni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot yo'liga olib chiqish uchun birinchi navbatda xalqning umumiy madaniyati, ma'naviyati, saviyasini rivojlantirish lozimligini uqtirishgan.

Ma'rifatparvarlardan bizga ilmiy, madaniy meros bo'lib kelayotgan «Nodir voqyealar», «Farzandlarga vasiyat», «Kasb va hunarning foydalari haqida», «Buxoro amirlarining tarixi», «Turkiy guliston yohud axloq ilmi», «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon», «Obid ketmon», «Padarkush» kabi ko'plab asarlarda insonlarni yaxshilikka chorlovchi, axloq va odobni kuylovchi, ma'naviyat haqidagi fikr va mulohazalar o'z o'rnini munosib topgan. Mazkur asarlar markazida inson, uning hayoti asosiy o'rin tutadi. Ularda insonning insoniyligi, avvalo, uning ichki ruhiy olamiga bog'likdigi, ana shu ruhiy olam unga kuch-quvvat, qaltis davrlarda ko'mak, irodasini baquvvat qilishda asosiy omil bo'lib xizmat qilishi g'oyasi asoslangan.

Jadid ijodkorlari o'z asarlarida ma'rifatchilik g'oyalarini targ'ib qilib, ijtimoiy shart-sharoitni oynadek aks ettirdilar.

«Yangichilik» yordamida omma «jakriyot» dan ongli harakatga, xalq ahvolidagi jiddiy sifat o'zgarishlari, ruhiy inqiloblar yuz berishi amri mahol, mana shu haqiqatni birinchi bo'lib anglagan va uni o'z harakatida dasturulamal qilib

olgan Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodkorlarimiz badiiy adabiyotiga jadid obrazini olib kirishlariga karvonboshilik qildi⁴⁸.

Xalqqa o‘z hayotini ko‘rsatish orqali uning ko‘zini ochish jadid adabiyotining maqsadi edi. Bu bilan jadid adabiyoti hayotga yaqinlashdi va tarbiya vositasini bajardi. Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr bo‘sag‘asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyandasi, yangi zamon o‘zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi mustaqil jumhuriyat g‘oyasining yalovbardori, yangi maktab g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o‘zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi. U tariximizning g‘oyat og‘ir va murakkab bir davrida yashadi.

XVI asrdan boshlangan inqiroz va turg‘unlik, jaholat va mutaassiblik avj pardasiga chiqqan, o‘zaro janjal, mahalliy urug‘chilik nizolari millatni behad holdan toydirgan ediki, bu imkoniyatdan foydalanib o‘lkani zabt etgan Rossiya zo‘r berib, uni turg‘un va tutqun saqlashga urinar edi. Mana shunday bir sharoitda millatni butunlay mavh bo‘lishi va Vatanni butkul g‘orat etilishi xavfidan asrab qolish, avlodlarni erk va ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma‘rifat va taraqqiyotga boshlash jadidlar nomi bilan tarixga kirgan Behbudiy zimmasiga tushdi. Tariximizning so‘ngi yuz yildan ortiqroq davrida xalqimizning eng katta armoni bo‘lib kelgan bugungi istiqlol kurtagi dastlab mana shu jadidlar ko‘ksida nish urib yetilgan edi. XX asr o‘zbek maorifi va madaniyati, qolaversa, bugungi mustaqillik tafakkurimiz, ehtimolki, shu jadidlar oldida burchlidir.

Jadidchilik harakati Turkistondagi yangi ma'naviy-ijtimoiy yuksalishning timsoliga aylandi. Jadidlarning nazariy qarashlarida ikkita muhim xususiyat ko‘zga tashlanadi: mustahkam irsiy ildiz hamda Sharq va G‘arb ma‘rifatchilari, faylasuflarining nazariy merosini egallashga intilish, ular mamlakatni tarakqqiyot yo‘liga olib chiqishning garovi G‘arb va Sharq madaniyatlarini uyg‘unlashtirib,

⁴⁸ Qarang: Behbudiy ma‘rifatparvar adib: Metodik-bibliografik qo‘llanma. -T.: 2004. 18 b.

xalqning koʻzini ochish deb bilganlar. Mahmudxoʻja Behbudiy «Tarix va joʻgʻrofiya» asarida «Dunyoga ishonmoq uchun, komil va odil boʻlmoq uchun tarixni oʻqumoq va bilmoq kerak. Dinu dunyodan boxabar boʻlmoq boʻlmoqni xoxlaydurgan har kim uchun tarix oʻqumoq kerak. Chunki har nimarsa va shuning asli va nasli tarixdan bilinur», deb yozgan edi⁴⁹.

Shu bilan birga, faqat Vatan tarixini emas, balki Ovroʻpo mamlakatlari tarixini ham bilish, safarlarga borib, xorijiy ellardagi madaniyat, taʼlim, davlat qurilishi sohasida erishilgan tajribalar bilan tanishish jadidlarni yurt taqdiri haqida teran fikr-mulohaza yuritishga undadi. Xuddi mana shu zarurat ularni bosqinchilik sabablarini anglab yetish, taraqqiyot va mustaqillik sari borish yoʻllarini izlab topishga yoʻnaltirdi.

Mahmudxoʻja Behbudiy taʼlim va tarbiya sohasida islohot oʻtkazish, yosh avlodni kasb-hunarga oʻrgatish kabi masalalarni hal etish lozim, deb bilgan. Shu bilan birga Behbudiy fan va texnikaning eng ilgʻor yutuqlarini oʻzlashtirib olmagan millatlar jahon tamaddunidan uzilib qolib, qoloq hayot kechirishga mahkumdir, degan edi⁵⁰.

Maʼrifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqyealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh boʻlmoq kerak edi.

Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u oʻz qabohatini ham, malohatini ham koʻra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. «Padarkush» shu tariqa maydonga keldi.

«Padarkush» dramasi Mahmudxoʻja Behbudiyning ijodida muhim ahamiyatga ega. Bu asarning qahramoni orqa-oldini oʻylamagan boyning oʻgʻli Toshmuroddir. Behbudiy bu asarda jaholat va nodonlik haqida, oʻqimagan bolaning buzuq yoʻllarga kirib oʻz otasini oʻldirgani haqida hikoya qiladi. Boy atrofida gilarining gapiga kirmaydi, oʻgʻlini oʻqitmaydi, oqibatda u koʻchada bezorilarga qoʻshiladi. Restoranda maishatga puli yetmay, sheriklarini tunda uyga

⁴⁹ Behbudiy Mahmudxoʻja. Tanlangan asarlar. -T.:Maʼnaviyat, 1999. 20 b.

⁵⁰ Behbudiy maʼrifatparvar adib: Metodik-bibliografik qoʻllanma. -T.: 2004

boshlab keladi. Boy uygʻonib, ularni sezib qoladi, lekin uni oʻldirib, pulni olib ketadilar. Jaholat va nodonlik otaning ham, bolaning ham boshiga yetadi. Agar butun millat aynan shunga oʻxshash ahvolga tushsa-chi?!

Drama oʻz maishatiga oʻranib dunyoni unutgan millatdoshlarga chaqmokdek taʼsir etadi. Asarda muallif oʻzining sevimli mavzusi -barchani ilm-maʼrifatli boʻlishga chaqirib, ilmsizlik balosini qalamga olgan⁵¹.

1917 yil toʻntarishidan soʻng Markaziy Osiyo maktablarini tashkil etishda mahalliy aholi orasidan birinchi boʻlib yetishib chiqqan muallimlar Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy va shunga oʻxshash ziyolilar asarlarida barkamol inson tarbiyasi haqidagi qimmatli fikrlar bugungi kunda ham oʻz qadr-qimmatini yoʻqotmay kelmokda.

Abdulla Avloniy (1878-1934) oʻzining «Usuli jadid» maktablari uchun toʻrt qismdan iborat «Adabiyot yohud milliy sheʼrlar» hamda «Birinchi muallim» (1912), «Turkiy guliston yohud axloq» (1913), «Ikkinchi muallim» (1915), «Maktab gulistoni» (1917) kabi asarlarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulugʻlab, oʻz xalqini ilmi, madaniyatli boʻlishga chaqiradi.

Avloniyning «Ikkinchi muallim» kitobida berilgan dastlabki ikki hikoya «Saxiylik» va «Baxillik» deb nomlangan.

«Saxiylik» hikoyasida Said ismli bolaning otasi har kuni oʻgʻli maktabga ketishidan oldin 10 tiyin berardi. Bir kuni Sayid maktab yoʻlida faqir kishini uchratadi. «Oʻgʻlim, ikki kundan beri ochman, taom olib yey desam* ustimdagi yirtiq chopondan boshqa hych narsam yoʻq», - deydi u. Said qoʻlidagi 10 tiyinni beradi va oʻsha kunni ovqatlanmasdan oʻtkazadi. Otasi oʻgʻlining olijanobligidan mamnun boʻladi, «Saxiy Saidim» deb olqishlaydi. Ertasiga 20 tiyin berib yuboradi.

«Baxillik» hikoyasida bir badavlat kishi misolida uning baxilligi, xasisligi, ziqnaligi va pastkashligi koʻrsatilgan. «Bir baxil kishining uyiga bir necha doʻstlari mehmon boʻlib keldi. Baxil mehmonlarni ziyofat qilish oʻrniga behuda soʻzlarni soʻzlab oʻlturdi. Oradan koʻp vaqt oʻtgandan soʻng xizmatchisini chaqirib: Bor

⁵¹ Behbudiy maʼrifatparvar adib: Metodik-bibliografik qoʻllanma. -T.: 2004. 22 b.

taom pishgan bo'lsa, olib kel», -deydi. Shul vaqt xizmatchi bir tobokda pishgan xo'rozni olib kelgan zamon, baxil xizmatchisiga boqib: «Boshini nima qilding?», -dedi. Xizmatchi: «Afandim! Nima qilur edim, tashladim», -dedi. Baxil: «Hye nodon, kishi xo'rozning boshini ham tashlarmi? Agar bir kishi tovuqning oyog'ini tashlasa, men borib olur edim. Bosh a'zolarning xo'jasidir. Xo'roz ul bosh ila qanday yaxshi qichqirar edi. Marjon kabi toji ham boshida edi. Eng shirin a'zolaridan sanalgan tili, eng ulug' a'zolaridan miyasi, ikki shahlo ko'zi, barchasi boshida edi. Bor, topib kel, biz yemasak mehmonlarga yedirurmiz, -deydi»⁵².

«Turkiy guliston yohud axloq» asarida insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi bir ilm-axloq haqida fikr yuritiladi. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatadi. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qiladi, chunki, ...ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur... Bizlarni jaholat, qorog'ulikdan qutqarur. Madaniyat insoniyatni ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va odob sohibi qilur... Alhosil butun hayotimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog'lidir»⁵³. Avloniyning ilmga nisbatan bunday ta'rifiga qaraganda bu asar Yusuf Xos Hojibning «Qutdag'u bilig», Nosir Xisravning «Saodatnoma», Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston», Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Ahmad Donishning «Farzandlarga vasiyat» asarlari shaklidagi o'ziga xos tarbiyaviy asardir.

A.Avloniy o'zbek pedagogikasi tarixida birinchi marta pedagogikaga «Pedagogiya», ya'ni bola tarbiyasi fani demaقدir», -deb ta'rif berdi. U bola tarbiyasini nisbiy ravishda tarbiyaning zamoni, badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi bo'limlariga ajratadi⁵⁴.

«Tarbiyaning zamoni» bo'limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta'kidlaydi. «Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir», -deb uqtiradi Avloniy. Tarbiya

⁵² Avloniy A. Ikkinchi muallim. 7 6.

⁵³ Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq: 22-23 b.

⁵⁴ Hasanboeva O., Hasanboev J., Hamidov X.. Pedagogika tarixi. -T.: .

xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Tarbiya zurriyot dunyoga kelgan kundan boshlanib, umrining oxirigacha davom etadi. U bir qancha bosqichdan - uy, bog'cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan.

Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. «badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir»⁵⁵.

«Inson o'z go'zalligi va murakkabligi bilan koinotdagi barcha maxluqotlardan afzaldir, aql -deydi Avloniy, -insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir, rux ishlovchi, aql boshlovchidir, ...ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari najotidir. Agar aqlingni qo'li nafsingni jilovini ushlasa, sani yomon yo'llarga kirmoqdan saqlar. Har narsa ko'p bo'lsa, bahosi arzon bo'lur, ammo aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko'paysa, shuncha qimmatbaho bo'lur»⁵⁶.

Abdulla Avloniyning qarashlari hozirgi kunda ham komil insonni kamol toptirishda kishilarni chinakam tuyg'ular, umuminsoniy ezgu g'oyalar ruhida, vijdoniylik ruhida tarbiyalash borasida qimmatli manba sifatida e'tiborni o'ziga jalb qilib kelmokda.

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat (1886-1931) ham «Oila» (1916), «O'quv» (1917), «Ona tili» (1918), «Imlo masalalari» (1919), «Adabiyot qoidalari» (1926), «O'zbek tilining naxvi», «Eski turk adabiyoti namunalari» (1927), «Rahbari najod», «O'zbek adabiyoti namunalari» (1928) va boshqa ko'plab asarlari orqali barkamol inson tarbiyasiga munosib hissasini qo'shgan bo'lib, uning qarashlari hozirgi kungacha o'z qadr-qimmatini yo'qotmay kelmokda.

Bolalarni barkamol qilib yetkazish uchun uning tarbiyasiga faqat oilagina javobgar bo'lmasdan, butun qavm a'zolari javobgardirlar, chunki «yoshlar har tomonlama yetuk inson bo'lib tarbiyalansa, qavmning kelgusi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ladi»⁵⁷. Abdurauf Fitrat jismoniy tarbiyaga, kishining salomat va baquvvat bo'lib tarbiyalanishiga alohida e'tibor qaratadi. U bolalarning toza

⁵⁵ Avloniy A. Ikkiichi kitob. 14 b.

⁵⁶ O'sha joyda.

⁵⁷ Fitrat A. Rahbari najot. Tarbiyai avlod.

havoda bo‘lishlari, atrof, tabiat go‘zalliklaridan estetik zavq ola bilishlariga ham ahamiyat beradi: «Havo inson uchun ovqatdan hammuhimdir. Besh-olti soat ovqatsiz turish mumkin, bir daqiqa havosiz turish mumkin emas. Shuning uchun go‘daklarni hamma vaqt sof havoga, bog‘-chorbog‘larga olib chiqish lozimdir. ...Nazofat (tozalik) va pokizalik ham bolalar tarbiyasida katta ahamiyatga egadir. ...Ular yoshlikdan pokizalikka o‘rgatilsa, pokizalik bora-bora ularning odatiga aylanadi. Aksincha, yoshlikdan ifloslikka o‘rgatilsa, katta bo‘lganda ham shunday odatga o‘rganadilarki, bu kishilarning nafratiga sazovor bo‘ladi»⁵⁸.

Fitratni fikr va aql insonni kamolotga yetkazadi va o‘qish, o‘rganish qobiliyati uni saodatmand qiladi degan fikr tark etmaydi. U bolaga to‘liq aqliy ta’lim berish uchun ijtimoiy, ilmiy, dunyoviy fanlarni maktab dasturlariga kiritish kerak, degan xulosaga keladi. U bolaga beriladigan bilim uning yoshi va bilish darajasiga mos kelishi, bolaga qiyinchilik tug‘dirmasligini, agar beriladigan bilim bolaga juda oson yoki juda qiyinlik qilsa bola bilim olishdan bezib qolishini uqtiradi.

Fitrat inson kamolotiga erishish uchun doimo intilishi, harakat qilishi lozimligi, doimo oldiga maqsadlar qo‘yishi va unga yetishish uchun kurashishi kerakligini, hyech bir baxt yoki boylik ham inson intilmasa o‘z-o‘zidan kelmasligini uqtirib o‘tadi va bu o‘rinda Qur’oni karimdan quyidagi parchani keltiradi: «Inson har nima topmasin, o‘zining intilishidan topadi, intilmas ekansiz, hyech narsaga erisha olmaysiz»⁵⁹.

Yuqoridagi keltirilgan dalillardan ko‘rinib turibdiki, Fitrat yoshlarni yangi jamiyat qurishga da’vat etadi, el-yurtning baxti, saodati, istiqloli uchun kurashishga chaqiradi. U «Xalq baxti uchun kurashmagan yoshlarni bo‘shang, jasoratsiz», deb tushunadi. Fitratning ta’biricha, yangi jamiyat uchun kurash faqatgina ma’naviyat, ma’rifat, sog‘lom turmush tarzi orqaligina amalga oshiriladi. Zero, jismoniy, aqliy, axloqiy tarbiya uyg‘un jamiyatda komillik yuzaga keladi. Komil insonlari bisyor jamiyat esa mustahkam bo‘ladi. O‘zbek halqining to‘ng‘ich pedagogi, shoir,

⁵⁸ Hasanbosva O., Hasanboev J., Hamidov X.. Pedagogika tarixi -T.: O‘qituvchi, 1997. 315 b.

⁵⁹ Fitrat A. Hind sayyohining qissasi. Sharq yulduzi, 1991. 37 b.

dramaturg, shoir, adib, kompozitor Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929) tashkil etgan maktab chinakam xalq maktablarining dastlabki namunasi edi.

Hamza bir qator asarlarida xalq maorifini demokratik asosda qayta qurish g'oyalarini olg'a suradi. Uning fikricha, «insonni inson qatoriga qo'shish», uni Kamolotga yetkazish, olijanob fazilatlarga ega qilib yetishtirish tarbiyaga bog'likdir. Yuksak kuchga ega bo'lgan tarbiya ilm, odob, hunar tarbiyasini o'z ichiga olgan bir butun jarayon bo'lishi kerak.

Demak, maktab yonsharini ilmli, odobli qilib tarbiyalashi va hunarga o'rgatish kerak, Hamza Hakimzoda hunar o'rgatishni keng ma'noda tushunadi. U maktabda o'qitiladigan hunarni kosibchilik, to'qimachilik, temirchilik, taqachilik emas, balki dunyoviy fanlar asosida yaratilgan ilm-texnikani egallashni hunar deb tushunadi.

II BOB. BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHNING USUL VA VOSITALARI.

II.1. Boshlang'ich sinf darslarida mutafakkirlarning me'rosidan foydalanish usullari.

Bizga ma'lumki boshlang'ich sinflarning o'qish, odobnoma fanlariga mutafakkirlarimiz merosidan foydalanishga keng o'rin ajratilgan. Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchi berilgan mavzularni o'tishda o'quvchi yoshiga mos bo'lgan asarlarni tanlay olish imkoniyatiga ega bo'lgani holda interfaol interaktiv usullar orqali darslarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyida biz darslardan namunalar bayon qilmoqchimiz.

Mavzu: OILA TASHVISHI

(Sayohat darsi)

Dars materiali: Oybekning «Mehnatkash qiz» hikoyasi. Kosib-hunarmandlarning ish do'koni.

Dars maqsadlari:

Ta'limiy maqsad: Oybekning «Mehnatkash qiz» hikoyasini o'qish.

Tarbiyaviy maqsad: «Mehnatkash qiz» hikoyasini o'qish orqali o'tmishdagi hunarmandlarning og'ir hayoti bilan tanishtirish, uning sabablarini aniqlash orqali O'zbekistonning hozirgi hayotini qadrlash hissida tarbiyalash.

Rivojlatiruvchi maqsad: o'quvchilarni matn ustida ishlash malakalari (matnni qismga bo'lish)ni rivojlantirish.

Dars metodi: ko'rgazmali, tushuntirish, suhbat, sayr-sayohatlar, taqqoslash.

Har bir mavzuning mazmuni, undagi yangi so'zlarning ma'nosini tushuntirish turli darslar metod va usullardan foydalanishni taqozo etadi. Bu esa o'qituvchining izlanishga, tayyorgarlik ko'rishiga, darsning samarali o'tishi uchun qilgan harakatiga ham bog'liqdir.

O'qituvchi Oybekning «Mehnatkash qiz» hikoyasini o'rgatish uchun sayohat darsi uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Albatta, sayohatga borish uchun tayyorgarlik ko'riladi.

Sayohatga tayyorgarlik.

O'qituvchi o'quvchilar bilan sayohatga borish to'g'risida suhbat uyushtiradi. Bunda sayohatga borish manzilini, vaqtini belgilaydi. Sayohat va undan ko'zlangan maqsad, sayohat vaqtida nimalarga e'tibor berish kerakligi aytiladi va taassurotlarini yozib olish tushuntiriladi. O'quvchilar, albatta, o'zlari bilan yon daftarcha va ruchka olishlari lozim.

Hikoyada shon qoqadi, shondan oladi (tushiradi), qora gul, lak surkaydi, so'zan, bigiz, mum kabi o'quvchilar uchun notanish so'zlar uchraydi. Bu so'zlarning ma'nosini tushuntirishning eng ma'qul yo'li kosib-hunarmandlar do'koniga borishdir. Bolalar do'konda kosiblar va ularning ish joylari, ish quroollari, ularning nomlari bilan tanishadilar. Birini ikkinchisiga taqqoslaydilar. Natijada qiyin so'zlarga izoh berishga hojat qolmaydi.

Sayohat tugagach, Oybekning «Mehnatkash qiz» hikoyasini o'qib, mazmunini o'rganish va sayohat taassurotlari asosida uy inshosini yozish uyga vazifa qilib topshiriladi. O'qituvchi o'quvchilar yozgan inshoni navbatdagi darsda yig'ib oladi va tekshiradi so'ngra ona tili darsida o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qiladi. Yutuq, kamchiliklarini ko'rsatadi. O'quvchilar bilimini baholaydi.

Sayohatni uyushtirish o'qituvchining ijodkorligiga bog'liq.

Uzluksiz ta'lim mazmuni va tarbiya tizimi, xususan, «O'qish» darslari orqali o'quvchi-yoshlarda Vatanga, xalqiga mehr-muhabbat, milliy g'urur, diniy bag'rikenglik, tinchliksevarlik, millatlararo muloqot madaniyati, insonparvarlik, mustaqil va teran fikrlilik, fidoiylik, yuksak mas'uliyat va burchni his etish, qalbi poklik, mustahkam irodalilik, g'oyaviy pishiqlik kabi komil inson uchun zarur bo'lgan fe'l-atvorlar milliy qadriyatlar, diniy-axloqiy o'gitlar, ajdodlarimizning o'lmas merosi asosida shakllantirib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

«Biz darslik yaratishga eng ilg'or va eng sharaflil vazifa sifatida qarashimiz, yaxshi darslik yaratgan odamlarni boshimizga ko'tarishimiz kerak». Bu –

kelajagimizning vorisi bo'lgan yosh avlod to'g'risida tinmay g'amxo'rlik qilayotgan Yurtboshimizning so'zlari. Darhaqiqat, bugun har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash har qachongidan ham muhim. Shu bois darsliklar yangilanmoqda, o'qituvchilarga yangi talablar asosida ishlash yo'llarini o'rgatuvchi metodik qo'llanma va tavsiyalar ishlanmoqda. Lekin bu yo'lda hali juda ko'p ishlar qilinishi zarur.

Boshlang'ich sinflarning «O'qish kitobi»da «Bobokalonimiz Alisher Navoiy», «Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari», «Alisher Navoiy haqida rivoyatlar», «Donolarning donosi», «Navoiy hikmatlari» kabi mavzular va Oybekning «Alisherning yoshligi» hikoyasi berilgan. Garchi ular qisqa bo'lsada, Alisher Navoiyning hayoti, uning bizga qoldirgan katta merosi, qilgan ezgu ishlari, insonparvarligi haqida o'quvchi ongida tasavvur hosil qilishi mumkin va bu yosh avlod qalbida Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Shunday ekan, bu mavzuni yanada ta'sirliroq chiqishi, o'quvchi Navoiy haqida kengroq tasavvurga ega bo'lishi uchun dars mashg'ulotlarida shoirning suratidan, asarlaridan foydalansak, hikmatli so'zlari yozuvi ko'rgazmasini tashkil etsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarga buyuk bobomizning tarjimai holi haqida gapirar ekanmiz, uning bolalik chog'laridayoq aqlli, odobli-zehnli bo'lganligini, ilm olishga juda chanqoq ekanligini chuqur tushuntirishimiz lozim. Toki bola ongida ana shu fazilatlarga ega bo'lishga harakat qilish fikri uyg'onsin. Buning uchun Alisher Navoiy haqidagi rivoyatlardan o'rinli foydalanish mumkin. Bundan tashqari, buyuk bobomizning xalqparvarligi, muhtojlarga yordam berishi, podshohlarni to'g'rilikka, haqgo'ylikka chorlovchi ezgu ishlari haqida o'quvchilarga kengroq ma'lumot berish kerak. Misol uchun:

Eyki, qaviy ayladi davlat qulung,

Zulm sori tushti va lekin yo'lung.

Bu satrlar orqali Navoiy o'z davrida xalqqa zulm o'tkazgan, ko'pgina nohaqliklarga yo'l qo'ygan, faqat boylik orttirish maqsadida xalq yelkasiga ko'plab o'lpon soluvchi podshohlarga murojaat qilgan. Ya'ni «Ey podshoh, baxt-davlat qushi boshingga qo'nib, sen el-yurtini so'raydigan bo'lding. Lekin, sen

bunday el-yurtni obod qilish, adolat uchun kurashmoq emas, o'z manfaatlarini o'ylab, odamlarga zulm qilish yo'ldan borayapsan». Yoki, agar kishi yaxshi inson bo'laman, o'zimdanda yaxshi nom qoldiraman, desa xalqni o'ylashi, uning dardi bilan yashashi, mushkulini oson qilishi zurur, deya uqtiradi Navoiy. Uning bu fikri:

*Odami ersang demagil odami,
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami,*

deb bitgan so'zlarida ko'rinadi.

Bir rivoyatda shunday hikoya qilinadi.

Bir o'tinchi chol bo'lgan ekan. U har kuni nabirasi bilan tog'dan o'tin terib kelarkan va shu o'tinlarni sotib tirikchilik qilarkan. Bir kuni u qattiq betob bo'lib qolibdi. Uning tabibga borishga bir miri ham yo'q ekan. Oradan kunlar o'tibdi. Uyda ham yegulik hyech vaqo qolmabdi. Bobosiga rahmi kelgan bola boyninghuzuriga boribdi va undan o'n tanga qarz so'rabdi. Boy o'n tanga beribdi va ma'lum bir kunda qaytarib berasan, debdi. Bola xursand bo'lib, o'n tangani bobosiga olib borib beribdi. Chol tuzalib ketibdi, ammo qarzini o'z vaqtida uzolmabdi. Bundan jahli chiqqan boy chol va uning nabirasini qozining oldiga sudray boshlabdi. Bu holatning ustiga Navoiy kelib qolibdi. Ul zotni ko'rgan boy arz qila boshlabdi. Shunda vaziyatni anglagan shoir cholga yigirma tanga beribdi. «O'n tangani qarzingizga bering, o'n tangani esa nabirangiz bilan o'zingizga ishlating», - debdi. Ammo chol tangani olmabdi. Shunda boy jig'ibiyron bo'lib: «Shunday ulug' zot muruvvat qilsayu olmasa» - debdi. Shoir «Yo'q, bu kambag'al qariya bizdan-da ulug'roq zot, u bizga mehnatsiz olingan aqcha yuq bo'lmasligini, halollikni o'rgatmoqda», - debdi.

Demak, Navoiy tabiatidagi insonparvarlik tuyg'usini, Vatanga muhabbat hissini u haqda yaratilgan rivoyatlar orqali, shoir o'zi yozib qoldirgan she'rlaridan foydalanib, o'quvchiga yetkazish lozim.

Alisher Navoiy «Xamsa» asarida Farrux, Iskandar, Shopur, Dilorom kabi o'nlab adolat, ma'rifat, yaxshilik, insoniylik, baxt-saodat, do'stlik, birodarlik, go'zallik uchun kurashuvchi, zulm va adolatsizlikning, jaholatning hamma ko'rinishlariga qarshi jang qilib, o'z hayotini shu olijanob maqsadlar tantanasiga

bag'ishlab, mard va jasur haqqoniy va oqko'ngil, xalqparvar va vatanparvar kishilarning yorqin obrazlarini yaratdi.

Farhod haqida shoir shunday deydi:

*Birovkim zori yig'lab, yig'lab ul zor,
Toshib ko'ngil el ozoridan ozor.
Bo'lub el anduhidin ko'ngli g'amnok,
Yoqo chokin ko'rub, ko'ksin qilib chok.*

Farhod faoliyatidagi barcha xususiyatlar uning ana shu elparvarligi, insonparvarligi bilan bog'lanadi.

«Xamsa»ning birinchi dostoni «Hayrat ul abror»da Navoiy kishilar munosabati va muomala mezonini, o'zini tuta bilish, bola tarbiyasi va boshqalar haqida qimmatli fikr-mulohazalarini bayon etadi. Dostonda odob bilan, har bir kishining holu ahvoliga yarasha muomala qilish, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat masalasiga keng o'rin berilgan.

Alisher Navoiy o'z asarlarida inson qadr-qimmatini har qanday boylikdan ustun qo'yadi.

«Farhod va Shirin» dostonida Farhodning insonparvarligi, uning irodasi, Shirin uchun Armanistonning tog'lik-toshlik yerida kanal qazish jarayonida namoyon bo'lishi ifodalanadi.

Farhod bu o'rinlarda o'zining tinch mehnati bilan bog'liq chinakam qahramonlik ko'rsatadi. Butun xalq bir necha yilda ham bajara olmaydigan ishlarni bir necha kunda, bir o'zi bajaradi va shu yo'l bilan Shirinning muhabbatiga sazovor bo'ladi. Farhod go'zal Shirinni zo'rlik bilan o'z changaliga kiritmoqchi bo'lgan Eron shohi Xisravga qarshi, sevgilisi yurtini himoya qilib, mardlarcha kurash olib boradi. Farhod va Shirin yovuzlikning, turli hiyla va nayranglarning, adolatsizlik va jaholatning qurboni bo'ladilar. Farhod o'zining shoh farzandi bo'lishidan qat'iy nazar, avvalo, inson ekanligi sababli mehnatga mehr qo'yadi, nochor kishilarga yordam berishni o'zining burchi deb biladi.

Navoiy «Layli va Majnun» dostonida odamzotning eng kechirilmas xatosi – inson dardini arzimas ganj (oltin)dan past deb hisoblashida kishi o‘zini o‘zihalokatga duchor qilishida deb biladi.

Demak, bobomiz Layli va Majnun sarguzashtlarini hikoya qilish bilan bizga: «Ey, inson, bu o‘tkinchi dunyoda sendan yaxshilik, yaxshi nom, mehr qoladi. Shuning uchun bir-birngga yaxshilik qil», - deb nasihat bermoqda.

«Xamsa»ning eng katta dostoni «Saddi Iskandariy» hisoblanadi. Bunda insonparvar shoirning yer yuzida mehr-oqibat, adolat-ma'rifat tantana qilishi bilan bog‘liq orzu va xayollari o‘zining ifodasini topgan.

Shoir o‘zining «Mahbub ul qulub» asarida ilm, hunar, odob, axloq, yurtsevarlik, mardlik, rostgo‘ylik kabi fazilatlarni ulug‘laydi. Yolg‘onchilik, badnafslilik, qo‘rqoqlik, xiyonat kabi qusurlarni qoralaydi.

Achchiq tillik ham eng yomon xususiyatlardan biri ekanligi haqida Navoiy shunday yozadi: «Achchiq til zaharli nayzadek sanchiladi. Ko‘ngulda bitmas jarohat barpo etadi, unga hyech narsa malham bo‘la olmaydi». Shuning uchun u kishilarni ochiq chehrali bo‘lishga da'vat etadi. Navoiy butun hayoti davomida ilm-ma'rifatni targ‘ib etdi. Uning «Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim», «Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur» kabi dono o‘gitlari xalqimizning hikmatli so‘zlariga aylanib qolgan.

Alisher Navoiy o‘z faoliyatida har bir kishini o‘ziga do‘st deb biladi. Uning bizga qoldirgan boy merosi asrlar davomida insoniyatni mehr-oqibat manzillari tomon boshlab, insonparvarlik g‘oyalarini yuqori cho‘qqiga ko‘tarib kelmoqda. Shunday ekan, kelajak avlodimiz ham Navoiydek insonparvar ulug‘ zotning avlodlari ekanligini anglab o‘sishi va u kabi bo‘lishga intilishiga erishaylik.

«Navoiyni o‘rgating menga...»

Darsning maqsadi: O‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish, mustaqil mutolaaga yo‘naltirish. Buyuk bobomiz, she'riyat mulkingning sultoni, Alisher Navoiy hayoti va ijodihaqida mukammal tushuncha berish.

Darsning uslubi: o‘quvchilarda ulug‘ ajdodlarimiz merosini o‘rganishga muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish, suhbat, sahna ko‘rinishi.

Darsning jihozlari: Alisher Navoiy portreti, shoir asarlari aks ettirilgan rangli rasmlar, kitoblar namunasi, test savollari, kartochkalar, magnitofon.

Darsning borishi:

Tashkiliy bosqich. O'qituvchi bolalar bilan salomlashadi. Bugungi sana, oy, kun haqida so'raydi. 2007 yil – «Ijtimoiy himoya yili»ning maqsad va mohiyati haqida qisqa va lo'nda tushuncha beradi.

O'qituvchi: - Bolalar, hozir yozuv taxtasi yoniga 3 ta o'quvchini taklif etamiz. Marhamat (topshiriq beradi).

1-o'quvchi yozuv taxtasiga «Qish» faslini aks ettiruvchi rasm chizadi.

2-o'quvchi faslga oid 2-3 ta gapdan iborat matn tuzadi.

3-o'quvchiga o'tgan mavzuni qanday o'zlashtirganini bilish uchun savollar beriladi. (X.To'xtaboevning «Xatosini tuzatgan bola» hikoyasi asosida savol-javob o'tkaziladi).

1. Qosimjonga qaerdan xat keldi?

2. U nima uchun «Devoriy gazeta»ga she'r yozib bermadi?

3. Davlatimiz ramzlarini sanab bering.

O'quvchilarning javoblariga mos ball qo'yib, rag'batlantiriladi. So'ngra 5 ta savoldan iborat test topshirig'i topshiriladi.

O'qituvchi: - O'quvchilar, endi test daftaringizni oching-da, javob yozishga tayyorlaning.

1) Ulug' allomalardan kimlarni bilasiz?

A) Alisher Navoiy, Forobiy

B) Al Xrazmiy, Hakim Nazir

V) Forobiy, Borot Boyqobilov.

2) O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi matnini kim yozgan?

A) Z.Diyor

B) A.Oripov

V) M.Burxonov

3) Ruboiyga ta'rif berilgan qatorni toping.

A) Maqol

B) Topishmoq

V) To'rt qatordan iborat, chuqur falsafiy ma'noga ega bo'lgan she'r.

4) G'azal necha baytdan iborat bo'ladi?

A) 3 baytdan 10-12 baytgacha

B) 2 baytdan 8-10 baytgacha

V) 4 baytdan 7-9-baytgacha

5) G'azal mulkinging sultoni kim?

A) A.Oripov

B) Alisher Navoiy

V) Q.Muhammadiy.

Savol	1	2	3	4	5
Javob	a	b	v	a	b
Ball					

Savollar bo'yicha to'g'ri javob topgan o'quvchilar aniqlanib, ball qo'yib rag'batlantiriladi.

Topshiriqni bajargan o'quvchilarga ham savollar beriladi. Bajargan ishlari izohlab baholanadi.

- Bayrog'imiz qachon qabul qilingan?

- Qish fasli haqida ashe'r aytib bering.

O'quvchilar diqqatini jalb qilish maqsadida «Zanjir» nomli xotirani charxlash o'yini tashkil etiladi. Uning sharti:

Ulug' allomalardan kimlarni bilasiz? (Savolga o'quvchilar ketma-ket javob berishga harakat qiladilar).

1-bola: - Alisher Navoiy.

2-bola: - Alisher Navoiy, Bobur.

3-bola: - Alisher Navoiy, Bobur, Ulug'bek...

O'yinda 5 ta o'quvchi qatnashadi. Shu orada o'qituvchi sinf taxtasiga yangi mavzuni yozadi.

Yangi mavzu: «Navoiyni o‘rgating menga...»

O‘qituvchi: - Ulug‘ bobokalonimiz Mir Alisher Navoiy 1441 yilda Hirot shahrida tug‘ilgan. Alisher yoshligidan odobli, o‘tkir zehnli, zukko, she‘riyatga qiziquvchan bola bo‘lgan va kattalar e‘tiboriga tushgan.

(Musiqqa yangraydi. O‘quvchilar shoirni sharaflab she‘r o‘qiydilar).

1-o‘quvchi:

Hirot tuprog‘ida voyaga yetgan,
«Qush tili» yo‘llarin munavvar etgan,
Yillar to‘zonidan sog‘-omon o‘tgan,
Navoiy bobomlar – buyuk odamlar.

2-o‘quvchi:

- «Xamsa»si ko‘ngilni shamdek yoritgan,
Ona tilimizni yoddan bor etgan,
Mag‘ribu mashriqni iftixor etgan,
Alisher bobomlar – buyuk odamlar.

3-o‘quvchi:

Ko‘p jahongir ko‘rgan bu dunyo,
Hammasiga guvoh yer osti.
Lekin, do‘stlar, she‘r ahli aro,
Jahongiri kam bo‘lar rosti.

4-o‘quvchi:

Besh asrki, nazmiy saroyini,
Titratadi zanjirband bir she‘r.
Temur tig‘i yetmagan yerni,
Qalam bilan oldi Alisher.
Dunyo bo‘ldi chamanim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

(O‘quvchilar shoirning ruboiy va hikmatli so‘zlaridan parcha o‘qiydilar).

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,

Jonni fido ayla ano boshig‘a.

Tun kuningda aylagali nurfosh,

Birisin oy angla, birisin quyosh.

- Chin so‘z e‘tiborli, yaxshi so‘z qisqa bo‘ladi.

- Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur.

- Bilmaganin so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.

- Tilni bilish – dilni bilishga yo‘l ochar.

(Sahna ko‘rinishi. Alisher va Lutfiy uchrashuvi).

Alisher: - Assalomu alaykum, ustoz!

Lutfiy: - Vaalaykum assalom, borakallo, biz faqirni ko‘rgani kelibsiz, ash'orlaringizdan tinglaylik.

Alisher: - Bajonudil, ustoz! (g‘azal o‘qiydi):

- Orazin yopqoch ko‘zimdin sochilur har lahza yosh,

Bo‘ylakim paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘och quyosh.

Lutfiy: «Borakallo, ofarin, agar imkon bo‘lganda edi, umrim bo‘yi yozgan barcha ash'orlarimni sizning shu ikki qator she‘ringizga alishgan bo‘lur edim».

(O‘quvchilar rag‘batlantiriladi).

O‘qituvchi: - O‘quvchilar, barcha shoir va yozuvchilar o‘zlariga taxallus tanlaydilar. Bobomiz o‘zlariga nima uchun Navoiy taxallusini qo‘yganligini quyidagi sahna ko‘rinishidan bilib olamiz.

(Sahna ko‘rinishi).

Alisher bog‘da o‘tirib she‘r yozadi va uni o‘qiydi:

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,

El anga shifiqu mehribon bo‘lmas emish.

Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,

Bulbulga tikondek oshiyon bo‘lmas emish.

Alisher yoqimli ovozidagi ohang gul shohida qo‘nib turgan bulbulga yoqib qolibdi.

Bulbul: - Ey, navqiron shoir, ovozing bulbulning erta tongdagi navosidan ham yoqimli ekan. Ismingni bilsam bo‘ladimi?

Alisher: - Ha. Mening ismim Alisher.

Bulbul: - Bildim, bildim, siz yosh shoirsiz. Endi o'zingizga munosib taxallus qo'ying.

O'qituvchi: - Alisherga boyagi bulbulning «navo» degan so'zi yoqib qolibdi. Shundan so'ng u o'z she'rlariga «Navoiy» deya taxallus qo'yadigan bo'libdi.

O'quvchilar, endi lug'at daftaringizni oling-da, yangi so'zlarni yozing.

Taxallus- ikkinchi nom.

Ash'or – asar

Yangi mavzu bayoni mustahkamlanadi.

O'qituvchi: - Alisher Navoiy Qachon, qaerda tug'ilgan?

- Bobomiz qaysi tilni mukammal bilganlar?

- Ulug' shoir asarlaridan qaysilari sizga ma'lum?

Dars yakunida barcha faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantirilib, kundaliklariga baho qo'yiladi.

Xulosa va uyga vazifa:

Mavzuni o'qib, erkin mavzuda insho yozish.

NAVOIY MEROSINI O'RGANISH

Qadim milliy ruhda jihozlangan sinf xonasi, xattaxta yaqinidagi «sahna»da so'z mulking sultoni Mir Alisher Navoiy hazratlarining yetti yoshli holatini o'sha davr liboslari ila aks ettirayotgan o'quvchi go'yoki hozirgina yozib, hali siyohi qurimagan g'azalini yoddan o'xqish bilan tadbirni boshlab beradi:

Orazin yopg'och ko'zimdin sochilur har lahza yosh,

Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz nihon bolg'och quyosh.

Alisher atrofida turgan bir qancha ajdodlarimiz - Mavlono Lutfiy, Fuzuliy, Xondamir, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro siymosidagi o'quvchilar yosh shoir g'azalidan so'ng qo'nlari ko'ksilarida: «Ofarin, Alisherbek, ofarin!» deya unga tasanno aytishadi va har birlari oldindan belgilangan joyiariga o'tirishadi.

Davraga odatdagidek ikki boshlovchi chiqib keladi. Magnitofondan «Munojot» kuyi past ovozda taralib turadi.

1-boshlovcht:

Bayram dasturini boshlab,

Dillaringiz shod aylab.

Sizga yuksak ehtirom -

Xush kelibsiz, assalom!

2-boshlovchi: Bugun ozod va hur yurtimizda yana bir qutlug^x tantana - buyuk shoir va mutafakkir, xalqimizning ulug' farzandi hazrat Alisher Navoiy bobomiz tavalludining shonli 570 yilligi butun yurtimizda keng nishonlanmoqda.

1-boshlovchi: Alisher Navoiy... Bu so'zni eshitgan har bir inson xayolida bobomiz yaratgan ulkan she'riy meros shunday gavdalanadiki, uni ta'riflashga til ojiz.

2-boshlovchi: Bugungi

mustaqillik kunlarida jonajon yurtimizning kelajagi bo'lgan yoshlarni, barkamol avlodni tarbiyalashda ulug' dahomiz yaratgan (4-sinflar uchun tadbir ssenariysi) asarlar beminnat xizmat qilmoqda.

Marhamat, tinglang va tomosha qiling! G'azal mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy bobomizning tavallud ayyomiga bag'ishlab «boshlang'ich»ning bitiruvchilari tayyorlagan adabiy kechani e'tiboringizga havola etamiz.

1-boshlovchi:

Jahonki, muqaddas neni ko'ribdi,

Bariga onasan, ey, qodir hayot.

Besh yuz yil naridan boqib turibdi,

Nurli bu yuzlarga nuroniy bir zot.

Shu buyuk o'glingni ardoqlab dildan,

Xalqim, ta'zim etsang arziydi tamom.

Uning nomi bilan birga bitilgan,

Dunyo daftariga o'zbek degan nom.

2-boshlovchi:

Boyqaro irg'ishlab istak otida,

Jahonga boqqanda misli bola sher.

Hirotdarvozasin bir qanotida,

She'riy lashkarini tuzgan Alisher.

1-boshlovchi:

Dunyoda biror nom qoldirmoq uchun,

Yurt burish shart emas, degan gapku rost.

Kimdir pesh qilganda nayzaning kuchin,

Alisher qalamni ko'rsatgan, xolos.

«Munojot» kuyi balandlaydi, biroz fursat o'tgach, pastlab, bir o'quvchi muallif sifatida o'qiydi, qolgan o'quvchilar esa rollar ijro etadilar.

Muallif: Bu voqea 1441 yil 9 fevralda Hirot shahrida Giyosiddin Kichkina oilasida sodir boldi.

Ali: (Alisherning tog'asi) pochchasi Giyosiddin huzuriga yugurib kirib keladi.

Ali:(1-o'quvchi): Assalomu alaykum, G'iyosiddin pochcha! Sizga xushxabar olib keldim! Suyunchi beringiz! Sizga xudoyim farzand ato qildi, o'g'il muborak!

G'iyosiddin (2-o'quvchi) (xayolida qulog'iga chaqaloq «ingasi eshitilgandek bo'ladi: Rahmat bag'oyat shodmen! G'oyat minnatdormen, inim! Yaxshi soatda xushxabar keltirdingiz! Jiyaningizni shu bois sizning nomingiz bilan ataymi; Sizdek shoir, fozil odam bo'lsin. Yani «sher» so'zini ham qo'shamiz Sherdek jasur, qudratli bolib o'ssin Farzandimizning nomi Alisher boladi.

Ali: Minnatdormen, mening ko'nglimni kutilmagan shodlik bilan to'ldirdingiz. Bu men uchun eng ulug' suyunchidir.

G'iyosiddin: Qani, marhabo koshonamizga boraylik.

Muallif: Ular yo'lda davom etishayapti Bu xonadonda esa Alisherning onasi alla aytayapti (Beshik tebratib alla aytayotgan Alisherning onasi sahnasi. «Alla xonishi eshitiladi).

Muallif (alla ohangi ostida):

- Bilmam, qanday ayol bordir,

Alisherning onasi.

Balki uning aqliga ham,

Lol qolgan zamonasi.

Balki uning ko'zlarida,

Bordir og'ir bir xayol.
 Balki g'amgin bir zotdir u,
 Balki sho'xchan bir ayol.
 Balki buyuk farzandiga,
 Terib kelgan chechaklar.
 Balki tunlar unga bedor,
 Aytib bergan ertaklar.
 Mayliga, u kim bolmasin,
 Yolg'iz bir so'z ma'nosi:
 Alisherning onasi u,
 Navoiyning onasi!

«Tanovar» raqsi qizlar tomonidi ijro etiladi.

Muallif: Bo'lajak shoirning otasi temuriylar avlodidan edi. Shunir uchun Alisher temuriy shahzodalar bilan tarbiyalanadi.

Yosh Alisher to'rt yoshga yetganida maktabga bordi. U o'zining o'qishi, odobi bilan boshqalardan ajralib turar edi.

G'iyosiddin Kichkina ham o'z farzandini yaxshi o'qitish, savodxon qilish uchun bir otadan neki lozim bo'lsa, barini astoydil ado etdi.

Ularning uyiga ko'pincha qalam ahllari to'planishib, she'rlar o'qishar, adabiyot, san'at haqida bahs-munozaralar o'tkazishar edi.

Alisher uchun buyuk ma'naviyat sohiblari - Mavloni Lutfiy, Xorazmiy, Abulqosim Firdavsiy, Xisrav Dehlaviy, Umar Hayyom, Abdurahmon Jomiy va yana bir necha buyuk adiblar namuna hamda ibrat maktabiga aylanganlar.

Ha, darvoqe, tadbirimiz avvalida yosh Alisher atrofida talay adiblar o'z so'zlarini bildirmoqqa shay bo'lib turishgan edi. Marhamat, tinglang, ular Navoiy hazratlari yaratgan ulkan merosga o'z tashbeh va fikrlarini bildiradilar. (Endi sahnada yosh Alisher emas, Navoiy siymosidagi o'quvchi atrofdagilarga qo'li ko'ksida hurmat keltirib turibdi.

Buyuk siymolarning Navoiy haqidagi fikrlari tinglanadi).

Yosh Alisherning iste'dodiga yuksak baho bergan Mavlono Lutfiy (1-o'quvchi) shunday deydilar:

Alisherning «Orazin...» deb boshlanuvchi baytini tingladim. Agar muyassar bo'lsa edi, o'zimning o'nlab ming forsiy va turkiy baytimni shu g'azalga almashar edim.

Men Navoiy zamondoshi Xondamir (2-o'quvchi) bo'laman:

«Bir soatlik adolat oltmish yillik ibodatdan afzal» degan so'zlarga amal qilib, Alisher amirliklar taxtini o'zining muborak qalami bilan ziynatladi. Adolat va insof eshiklarini insoniyatga ochib qo'ydi.

Men Abdurahmon Jomiy (3-o'quvchi) durmen: Bu qalamkashga falakdan ofarinlar yog'ilsin! Chunki bu yoqimli baytlarni o'sha qalamkash yaratdi.

Men esa Navoiy zamondoshi Husayn Boyqaro bo'laman:

Alisherning nazmi oldida til lol va bayon ojiz turur.

Fuzuly (6-o'quvchi) fikriydilar:

Turkiy Ajamu Arabda ayyom,

Har shoira bermishdi bir kot.

04mishdi Navoiy suxandon,

Manzuri Shahanshoi - Xuroson.

Zahriddin Muhammad Bobur ham (5-o'quvchi): Alisherbek bahosi yo'q kishi erdi. Turkiy tiida she'rlar aytibdurlarki, hech kim bunchalik ko'p va xo'b aytg'on emas, degan edilar.

Qarsaklar ostida sahna korinishi yakuniga yetadi. So'ng Navoiy g'azali bilan aytiladigan qo'shiq tinglanadi. O'quvchilar Navoiy ruboiylaridan namunalar o'qishadi.

1-o'quvchi: 1447 yil Xurosondagi notinchliklar sababidan Alisherlar oilasi Iroqqa ko'chadi.

2-o'quvchi: 1457 yil Abulqosim Bobur Mashhadda vafot etdi. Alisher Mashhadda qolib, o'qishini davom ettiradi.

3-o'quvchi: 1464 yil Alisher Navoiy Hirotga qaytadi.

4-o'quvchi: 1465 yil esa u Samarqandga keladi.

5-o'quvchi: 1469 yil Husayn Boyqaro taxtga o'tiradi. Navoiy bobomiz Hirotga qaytib keladilar hamda muhrdorlik vazifasiga tayinlanadilar.

6-o'quvchi: 1472 yil Navoiy vazir maqomini oladi.

7-o'quvchi: 1487 yil esa Astrobodga hokim qilib tayinlanadilar.

8-o'quvchi: 1488 yil shoirimiz Hirotga qaytadilar.

9-o'quvchi: Kun bo'yi devondagi ishlar bilan band bo'ladilar. Kechalari esa ijodxonadan chiqmaydilar. Ammo kasallik tez-tez bezovta qilar edi.

10-o'quvchi: 1500 yilning 31 dekabr kuni buyuk shoirimiz qattiq betoblanadi. 1501 yil 3 yanvar kuni u oliy zot hayotdan ko'z yumadilar. («Qaro ko'zim» musiqasi chalinadi).

11-o'quvchi: Alisher Navoiy avlodlarga boy xazma besh dostonidan iborat «Xamsa»sini qoldirdilar. Bu asar shoir ijodining yuksak cho'qqisi, sharq xalqlari adabiyotining nodir durdonasidir.

1-boshlovchi: Bobokalonimiz, so'z mulkining sultoni hazrati Alisher Navoiyning adabiy-ma'naviy merosi ko'pgina olimlarimizni ilhomlantirib keladi. Ular Navoiy bobomiz haqida tarixiy manbalar asosida ko'plab asarlar yaratadilar.

Hozirda maktablar, xiyobonlar ko'cha va madaniyat binolari buyuk shoirimiz nomi bilan ataladi. Bu nomda O'zbekiston Davlat mukofoti ham bor.

2-boshlovchi: Oynai jahon orqali bobomiz hayoti va ijodiga bag'ishlangan ko'rsatuvlar tez-tez namoyish etiladi, g'azallari mashhur suxandonlar yoki talaba va o'quvchi-yoshlar tilida yangraydi. Ko'plab she'r va g'azallari hofizlar tomonidan kuylanadi, biz, san'at shaydolari ularni miriqib tinglaymiz.

«Munojot» qo'shigldan parcha magnitofon orqali eshittiriladi.

1-boshlovchi: Aziz kechamiz mehmonlari, vaqtingizni ayamay, qilgan tashrifingiz uchun sizlardan minnatdormiz.

2-boshlovchi: Shu bilan Alisher Navoiy bobomiz xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan kechamiz o'z nihoyasiga yetdi.

1-boshlovchi:

Sen hurlik, adolat, ishqni kuylading,

Haqqoniy suxanlar elga so'ylading.

Jahonda shuhrating so'nmaydi aslo,

Sen tirik, sen olmas, senga tasanno!

2-boshldvchi:

O'n beshinchi asrda nazmiy osmonda,

Manguga nur sochgan ey, boboquyosh.

Turkiy xalqlarimiz o'tli qonida,

She'riyat bahsida abadiy yo'ldosh.

II.2. Sinfдан tashqari ishlarda mutafakkirlarimiz o'gitlaridan foydalanish.

“ Bizning ajdodlarimiz hamisha uzoqni ko`zlab yashagan. Millat Vatan, xalq istiqboli degan muqaddas tushunchalar hamma vaqt qalbimizning turidan joy olib, har birimizning hayotimizda, ongimizda charx urib turishi darkor.

Chinakam xalq bo`lsak, chinakam millat bo`lsak, ulkan, qudratli daryoga aylanaylik, farzandlarimizga o`zgalar havas qiladigan ozod va obod Vatan qoldiraylik.”⁶⁰ Prezident I.A. Karimov.

Mazkur nutqdan kelib chiqib, ta`lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o`tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to`la halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma`naviy va ahlokiy talablarga javob beradigani o`quvchi yoshlarni tarbiyalash ishida maktabdan tashqari olib boriladigan mashg`ulotlar katta rol o`ynaydi. Shu sababdan ham o`qilayotgan asar yuzasidan umumiy fikrga kelish, maslahatlashish aniq tushuncha hosil qilishining eng yaxshi vositasi to`garaklardir. To`garak o`quvchilarni uyushtiradi, asar ustida ishlashga o`rgatadi. O`qituvchi bu ishda rahbar bo`ladi.

Mavzu: “Biz buyuklar avlodi”

Soatlar soni: 1 soat. Mavzuning qisqacha ta`rifi: o`rganilgan barcha buyuk allomalami takror- lash.

⁶⁰ 1997 y 29 avgust. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi To`qqizinchi sess.so`z.n.

o'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod: Suhbat, didaktik o'yinlar, muammoli izlanish, tushuntirish, munozara.

Shakl: jamoa, guruh bilan ishlash.

Jihoz: Darslik, testlar, boshqotirma, rebus.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning maqsad va vazifalari

Maqsadlar:

Ta'limiy: o'quvchilarning to'g'ri, ifodali o'qish malakalarini, bo'lim yuzasidan olingan bilimlarni mustahkamlash.

Tarbiyaviy: Buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish hissini uyg'otish, ularning qilgan ishlari, qoldirgan boy ma'naviy meroslarini o'rganishga qiziqishni tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning to'g'ri, ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish.

Vatanga muhabbat hissini rivojlantirish.

Kutayotgan natija

Dars yakunida o'quvchilar matnni to'g'ri va ifodali o'qish malakasiga ega bo'ladilar. Shu bolimda o'rgangan bilimlarini sinovdan o'tkazadilar, Bilmaganlarini o'rganishga kirishadilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi

Bajariladigan ish mazmuni

Metod

Vaqt

1-bosqich

Tashkiliy qism

o'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfiing darsga tayyorligi tekshiriladi.

2-bosqich (Refleksiya) ehtiyojlarini aniqlash

Dars davomida rioya qilish lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. Dars shiori ishlab chiqiladi.

Munozara

2daqqa

3-bosqich

Darsning borishi.

1. Dars mehmonlar ishtirokida o'tadi. Ular - Amir Temur, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Ulug'bek, Bobur Mirzolar rolidagi . kishilar(yoki bolalar ham bo'lishi mumkin) darsga keladilar.

2.o'qituvchining kirish suhbat.

3. Har mehmonning o'quvchilar bilan muloqoti.

4. Testlami yechish mashqi

Mehmon

spikkerlar

Suhbat,

Muammoli izlanish.

2 daqiqa 4 daqiqa 15 daqiqa 8 daqiqa

4-bosqich

mustahkamlash

1. Yakuniy suhbat.

2. Boshqotinnalar hal etiladi suhbat o'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reytinggi e'lon qilinadi va dars yakunlanadi.

2 daqiqa 5 daqiqa

5-bosqich

Baholash

Darsning yakunlash

3 daqiqa

6-bosqich

Uyga matnni o'qib, qarganib kelish topshi- rig'i beriladi.

Tushuntirish 2 daqiqa

Darsning borishi:

Xattaxta oldida mehmonlar uchun stullar qo'yilgan. Dars boshlanadi. Tashkiliy qismdan so'ng o'qituvchi bugvin dars davomida qilinadigan ishlarni e'lon qiladi: "Bugun biz, siz bilan buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy meroslar, ulaming hayotlari haqidagi olgan bilimlaringizni mustahkamlaymiz, ulaming siymolari bilan tanishamiz. Biz shu vaqtgacha buyuk bobolarimizdan kimlar bilan tanishdik. (A.Temur, A.Navoiy, Ibn Sino, Ulug'bek, Bobur). Juda yaxshi. Ular bugun bizning darsimizga tashrif buyurganlar. Ularni kutib oling.

Sinfga ular kabi kiyingan bolalar kirib keladilar. (Bu siymolarni yaratishga yuqori sinf o'quvchilari yoki teatr aktyorlarini taklif qilish mumkin. Bunga imkon bo'lmaganda sinf o'quvchilari ishtirok etishlari mumkin).

O'quvchilar turib salomlashadilar. "Mehmon"lar joylarini egalaydilar.

Amir Temur:

Biz kim mulku Turon amiri Turkistonmiz,

Biz kim millatlarning eng buyugi,

Turkning bosh bo'g'inimiz.

Men umrim davomida yirik davlat tuzdim. Yurtni boshqarishda bir nechta hikmatlar bilan bir qatorda "Kuch - adolatdadir" degan hikmatga amal qildim. O'g'illarim va nabiralarim tarbiyasiga, bilimli bo'lishlariga ko'proq e'tibor berdim va barcha kelajak avlodga o'z o'gitlarimni yozib qoldirdim.

O'qituvchi: Buyuk bobomiz o'gitlaridan kim yod olgan?

(O'quvchilar yoddan aytib beradilar).

O'qituvchi: Darслиgingizdagi birinchi boshqotirmani yechsangiz, bir jonivoming nomi kelib chiqadi.

O'quvchilar boshqotirmani hal etadilar.

Amir Temur: Men sizlardan xursandman. Men ishonamanki, o'zbeklar siz orqali yana dunyoga taniladilar.

Ibn Sino: Sizlarning sog'lom o'sishlaringiz o'zbekistonning dovmg'ini olamga yoyadi. Chimki sog'lom, baquwat, jasur va mard o'g'lonlar vatanning

tayanchlaridir. Sogʻlik bilan birga kitobga mehr qoʻying. Shunda dunyo sirlaridan boxabar boʻlasiz.

oʻquvchilar. Biz sizni tanidik, bobojon. Siz mashhur hakim Abu Ali ibn Sino bobomizsiz.

oʻqituvchi: Darsligingizdagi ikkinchi boshqotirmani hal etsan- giz, bobomizni xursand qilasiz.

oʻquvchilar boshqotirmani hal etadilar va “alloma” soʻzining maʼnosini tushuntirib beradilar.

A.Navoiy: “Gʻurbatda gʻarib shodmon boʻlmas emish,

El anga shafiqu mehribon boʻlmas emish.

Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,

Bulbulga tikandek oshiyon boʻlmas emish.

Men 1441-yilning 9-fevralida Hirotda dunyoga keldim. 5-6 yo- shimdanoq koʻp sheʼrlarni yod oldim.

Orazin yopqoch koʻzimdin sochilur har lahza yosh,

Boʻylakim paydo boʻlur, yulduz nihon boʻlgʻoch quyosh.

Bu gʻazalni men 12 yoshimda bitganman. Sheʼr yozish bilan birgalikda yoshlikdan birga oʻsgan doʻstim shoh va shoic Husayn Boyqaroga yurtni boshqarishga yordam berdim.”

oʻquvchilar: Bobojon, biz sizni tanidik. Siz “Soʻz mulkining sul- toni”-A. Navoiy boʻlasiz.

- Rahmat, bolajonlar. (“A. Navoiy” awaldan tayyorlab qoʻyilgan joyga oʻtiradi.)

oʻqituvchi: Bobomiz A.Navoiy haqidagi bilimlaringizni namoyish qilinglarchi.

1-savol: “Bobokalonimiz A. Navoiy kim boʻlgan?”

A. Shoir, olim, davlat arbobi.

B. Sarkarda, shoh, tabib.

2. Husayn Boyqaro nimani keltiring dedi?

A. Xushboʻy narsa

B. Gul

3. Navoiy imga nima keltirdi?

A.Gul

B.Non

4. A.Navoiy ovchi bo'lishni orzu qilgan o'rtog'iga qanday maslahat berdi?

A. Hayvonlarni sevishni.

B. Maktabda o'qishni.

(o'quvchilar barcha savollarga javob beradilar).

Mirzo Ulug'bek: "Men buyuk sarkarda va shoh Amir Temurning nabiralari bo'laman. Yoshligimdan bilim olishga qiziqdim. 15 yoshimda taxtga o'tirdim va 40 yil davomida yurt boshqardim. Bu davr davomida obodonchilik va ilm - ma'rifat rivojiga ko'proq e'tibor berdim. Yulduzlar ilmiga qiziqqanligim sababli rasadxona qurdirdim va bu sohada ko'pgina kashfiyotlar qildim."

(o'quvchilar: Biz sizni tanidik. Siz olim va shoh Mirzo Ulug'beksiz.

Bobur Mirzo o'midan turib so'z boshlaydi.

Bobur Mirzo: "7b/e yo'g'i jonimg'a balolig' bo'ldi Har ishnikni ayladim xatolig' bo'ldi O'z yurtim qo'yib Hind sori yuzlandim,

Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Men ham Amir Temur avlodidan bo'laman. Andijon shahrida tavallud topdim. Ammo mamlakat ichidagi umshlar tufayli Hindis- tonga jo'nab ketishga majbur bo'ldim. Hindistonda yashab u yerda bir qancha imoratlar qurdirdim. Bir umr Vatanimni sog'inib, uni qo'rsab o'tdim. Vatan kabi muqaddas joy dimyoda yo'q ekanligiga amin bo'ldim."

(o'quvchilar: Bobojon siz "Shoh va shoir" degan nom bilan tarixda qolgan Mirzo Bobur bo'lasiz. Siz haqingizda ko'p eshitganmiz.

(o'qituvchi: Buyuk ajdodlarimiz haqidagi bilimlarimizni sinab

ko'rish vaqti yetdi. Quyidagi testlarga javob berishga harakat qiling-

1. Amir Temur kim bo'lgan?

A. Shoir

- B. Sarkarda
2. Amir Temur qaysi hikmatga amal qilgan?
- A. Kuch - adolatda
- B. Kuch birlikda

o'qituvchi: Amir Temur o'gitlaridan biri mana bu rebusda yas- j^^^ngan.

Qani o'ylab ko'ring-chi?

Rebus hal etiladi.

3. Mirzo Ulug'bek kim bo'lgan?
- A. Olim, buyuk munajjim, shoh
- B. Shoir, rassom, tabib
4. Mirzo Bobur kim bo'lgan?
- A. Shoh va shoir
- B. Munajjim
5. Mirzo Bobur onasidan nima haqida so'radi?
- A. Bulutlar haqida
- B. Yomg'ir haqida

o'qituvchi "Ona sabog'i hikoyasi asosida bolalar bilan savol - . vob o'tkazadi.

^ *Dars yakunida o'qituvchi quyidagicha savol-javob o'tkazadi:*

- Bolalar bu bo'limda kimlar haqidagi asarlami o'qidik?
- Ibn Sino yoshligida ko'proq nimaga qiziqqan ekan?
- Amir Temur o'gitlarini yoddan ayting.
- Alisher Navoiy haqida nimalami bilib oldingiz?
- Ulig'bek bobomiz kim bo'lganlar?
- Bobur onasidan qanday saboq oldi?
- Siz ajdodlarimizdan yana kimlami bilasiz?

o'zingizga yoqqan asaming biror qismini ifodah o'qib bering. "Mehmonlar" xayrlashib chiqib ketadilar. o'qituvchi o'quv- ^^ilami baholaydi va darsni xulosalaydi, yakunlaydi.

X ULOSA

Mustaqillikning asosiy maqsadi inson va uning manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir. Qo'yilgan vazifa jamiyatdagi ijtimoiymuhitni sog'lomlashtirish, insonparvarlashtirish va demokratlashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Zero, inson bilan ijtimoiy muhit o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud, u ijtimoiy muhitdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. Barkamol inson shaxsini shakllantirishda, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish jarayonida ijtimoiy muhitning o'ziga xos maqomi, xususiyatlari mavzusini tadqiq etish natijasida quyidagi ba'zi bir muayyan umumnazariy xulosalarga kelish mumkin: Birinchidan, jamiyatda amalga oshirilayotgan barcha bunyodkorlik faoliyatining pirovard natijasi aslida inson kamoloti, baxt-saodati, yorqin istiqboli, farovon turmushini ta'minlashga qaratilganligi amaliyotda yorqin namoyon bo'lmokda. Ikkinchidan, tabiat va jamiyat, inson va u yashab turgan muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlar o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra o'ta murakkab muammolardan biri sanalib, uni har tomonlama ilmiy tadqiq etish va ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish ijtimoiy falsafa fanining e'tiborli va salohiyatli nazariy va amaliy muammolaridan biriga aylanamokda. Bu borada ta'lim-tarbiyaning muayyan talab va ehtiyojlariga naturfalsafiy tarzda yondoshish, konkret muammolarni deduktiv mushohada nuqtai nazaridan hal etishga urinish, konkret maqsadni so'zamollik bilan almashtirish kutilgan natija bermasligi tabiiy holdir, albatta. Uchinchidan, ijtimoiy muhit to'g'risida fikr-mulohaza yuritar ekanmiz, uni tabiiy, geografik muhit, ya'ni bilvosita muhitdan farqlay olishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy muhit aslida inson ko'rib va sezib turgan, uning shakllanishi va barkamolligini ta'minlaydigan moddiy va ma'naviy-madaniy shart-sharoitlarning majmua va tizimidir. Ijtimoiy muhit keng ma'noda (makromuhit), umuman olganda, ijtimoiy-iqtisodiy tizim ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy institutlar majmui, ijtimoiy ong, muayyan jamiyat madaniyati, ma'naviy-ruhiy darajasini qamrab oladi. Tor ma'noda (mikromuhit) esa u ijtimoiy muhitning tarkibiy qismi sifatida bevosita insonni o'rab turgan oila, o'quv va h.k. jamoalar va guruhlarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy muhit barkamol

inson shaxsining shakllanishi va rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi⁶¹. To'rtinchidan, insonni har qanday omil, ta'sir etuvchi kuch yetaklasa, «labbay» deb ketaveradigan, ko'r-ko'rona ishonaveradigan, «musichadek yuvvosh», o'zligiga ega bo'lmagan sub'ekt sifatida talqin etish o'ta darajada primitiv mushohada yuritish bo'lar edi. Inson o'zining ijtimoiy faolligi, faoliyati ta'sirida o'zgarib boradi va o'zgarishlar jarayonida odamlarning o'zi, ijtimoiy muhit ham o'zgarishlarga yuz tutadi, desak xato qilmagan bo'lamiz. Beshinchidan, inson va ijtimoiy muhitning o'zaro dialektik aloqadorligini teran his qilish hamda unga doimo izchil ravishda amal qilib borish ilmiy-nazariy muammolarni samarali tahlil etishning garovidir. Aks holda bir butun tizimni parchalab, uning tarkibiy qismlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish va noadekat xulosalarga kelish sog'lom falsafiy tafakkur qonun-qoidalariga ziddir. Vaholanki, ijtimoiy muhit inson xulq-atvori, ma'naviy qiyofasini, tafakkurini, ijtimoiy idealini ijobiy tarzda shakllantirishga va boyitishga xizmat qilsa, barkamol inson esa, o'z navbatida, ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirishga, ijtimoiy ravnaqqa o'zining samarali ulushini qo'shadi. Oltinchidan, kelajak avlod ta'lim-tarbiyasida oila, maktab, ta'lim tizimi muassasalari, mehnat jamoasi va boshqalarning o'rni va mavqeyi doimo muhim e'tiborli bo'lib kelgan. Ammo bulardan qaysi biri ta'lim-tarbiya jarayonida yetakchi rol o'ynaydi, avlod taqdirini hal etadi, degan savolning tugilishi ko'p jihatdan maqsad-muddaoga ma'qul kelmaydi. Shunday ekan, tomonlarning o'ziga xos xususiyatlari, o'rni va maqomini e'tirof etish maqsadga muvofikdir, chunki ular bajarishi lozim bo'lgan ijtimoiy funksiyalar o'z mazmun-mohiyati nuqtai nazaridan betakror va turlichadir. Buni nazardan soqit qilish pirovard natijada ijtimoiy-ma'naviy tanazzulga olib kelishi mumkin. yettinchidan, inson tarbiyasida o'rnak-namunaning ahamiyati beqiyosdir. So'z va amal birligiga loqayd, mas'uliyatsiz ota-ona, ustoz ta'lim-tarbiyaning zavolidir. Shunday ekan, tarbiyachining o'zini tarbiyalash jamiyat oldida muhim masalalardan biridir. Dono xalqimizning «Ota bolasi emas, inson bolasi bo'l», «Ustoz otangdan ulug'» kabi purma'no o'g'itlari doimo yosh avlodning ta'lim-tarbiyasida ma'naviy ozuqa bo'lib

⁶¹ Qarang: Falsafa: Qomusiy lug'at tuzuvchi va masul muharrir .Nazarov. -T.:Sharq., 2004. 149 b

kelgan. Ta'lim-tarbiyaning muhim omili ijtimoiy muhitni shakllantirishda ajdodlar o'giti, qadriyatlariga amal qilishimiz davr taqozosidir. Hazrati Alisher Navoiy so'ziga amal qilmagan insonni behudaga ariq-kanal qazib, suv bilan ta'minlamagan, yer maydonini shudgor qilib, unga urug' qadamagan dehqonga o'xshatmagan. Sakkizinchidan, mamlakatimizning mustaqillikka erishganligi sharofati tufayli xalqimiz boy ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, tiklash, poklash, teran tahlil qilish real imkoniyatlari yaratiladi. Shulardan ilhomlangan holda bobokalon ajdodlarimiz muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr al-Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Burxoniddin al-Marg'inoniy, Bahouddin Naqshband, Mirzo Ulug'bek, Ahmad Donish, Muqimiy, Furqat va boshqalarning bitmas-tuganmas ma'naviy xazinasiga murojaat etish ta'lim-tarbiya jarayonining yanada jozibali va samarali maqomga erishishiga xizmat qilishi shubhasizdir. To'qqizinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonini har tomonlama tadqiq etishda mavhum tushunchalar mushohada qilish bilangina qanoat hosil qilmasdan, mustaqillik sharoitida shakllangan jamiyat, ijtimoiy muhit, yangi shaxsning shakllanish tamoyil va me'yorlarini oqilona sotsiologik tadqiqotlar vositasida tahlil etish, xolisona ilmiy-nazariy xulosalarga kelish hozirgi kunning-dolzarb muammolaridan biridir. Oddiy sxematizm, konkret muammolarni mavhum tarzda o'rganish, jarayonning xusuiyatlariga e'tibor qaratmaslik, keskin muammolarni xaspo'shlab o'tishdan murod hosil bo'lmaydi. O'ninchidan, ta'lim-tarbiya jarayonini tahlil qilar ekanmiz, o'tmishda erishilgan yutukdarni ko'r-ko'rona rad etish yoki hozirgi kunda amalga oshirilayotgan ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni ideal darajada deb da'vo qilish mazkur jarayonni xolisona, ob'ektiv tarzda o'rganish, baholash va tegishli xulosalar chiqarib olishga putur yetkazadi. Maqsad yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklardan ogoh bo'lish, ta'lim-tarbiya tizimini jamiyat va davr talablari darajasi bilan hamohang bo'lishiga erishishdir. Bu esa, ta'lim-tarbiya va ijtimoiy muhitning aloqadorligini aniqlashga xizmat qiladi. O'n birinchidan, ta'lim-tarbiya - ijodkorlik maktabi. Uni boshqa turli-tuman muassasalardan farq qila olish muhimdir. Formalizm, o'ta rasmiyatchilik, qog'ozbozlik, ko'rsatmalar, odat tusiga kirib qolgan tekshiruvlar, kuzatuvlar, hisobotlar, ma'lumotnomalar

tayyorlash va hokazolar ta'lim-tarbiya sohasidagi mansabdorlarning tinchosoyishta hayotini ta'mishtshi mumkin, lekin bunday sa'y-harakatlar ijtimoiy muhit bilan insonni bir-biriga yaqinlashtirishga xizmat qilishdan yiroqsir. O'n ikkinchidan, O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning ta'lim-tarbiya sohasiga bo'lgan e'tiborli munosabati, ma'naviy qadriyatlarimizni e'zozlashdagi tinimsiz sa'y-harakatlari, islohotlarning ko'lami, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» istiqbolli kelajak avlodni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi, degan mulohazaga kelish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.:O‘zbekiston, 1997. 283 b.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. -T.O‘zbekiston, 1998.
3. Karimov I. A. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis IX sessiyasida so‘zlagan nutqi. «O‘zbekiston ovozi», 1997 yil. №9
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Ma'ruzalar, nugqpar, suhatlar. -T.: O‘zbekiston, 1995. -271 b.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston: Milliy Istiqgyul, iqtisod, siyosat, mafkura. -T.: O‘zbekiston, 1996. -364 b.
6. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 13 tomlik, T.2 -T.: O‘zbekiston, 1996. -382 b.
7. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. -T.: 3 -T.: O‘zbekiston, 1996. -366 b.
8. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. T.4. -T.: O‘zbekiston, 1996 -349 b.
9. Karimov I.A. Oila farovonligi - millat farovonligi. //Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T.6. -T.: 1998. -429 b.
10. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. -T.: 5 -T.: O‘zbekiston, 1997. -384 b.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. -T.: 6 -T.: O‘zbekiston, 1998. -429 b.
12. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O‘zbekiston, 1999.-686 b.
13. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmokda. -T.: O‘zbekiston, 1999 -48
14. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. 13 tomlik, T.8. -T.: O‘zbekiston, 2000. -526 b.
15. Karimov I.A. Milliy Istiqlol mafkurasini - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchidir: «G‘GOOKOK»gazetasi muxbiri savollariga javoblar. /Yuzod

- va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. -T., 2000. -526 b.
16. Karimov I.A. Olloh qalbidamda, yuragimamda. -T.: O‘zbekiston, 2000.-16 b.
 17. Karimov I. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. -T.: O‘zbekiston, 1995, -74 b.
 18. Karimov I.A. Donishmand halqimamning mustahkam irodasiga ishonaman. (Prezident I.A. Karimovning «Fidokor»gazetasi muxbirining savollariga javoblari.) // Halq so‘zi, 2000, 10 iyun.
 19. Karimov I.A. Ya budu posledovatelen v svoix deystviyax // Tashkentskaya pravda. -1992. -22 yanv.
 20. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: O‘qituvchi, 1992. -160 b.
 21. Behbudiy ma‘rifatparvar adib: Metodik-bibliografik qo‘llanma/ Tuzuvchi G.Axmedova; Mas‘ul muharrir A.Tursunov. -T.: 2004.
 22. Bobir Z.M. Boburnoma. -T.: O‘z FA nashr., 1960. -513 6.
 23. Bo‘ronov Q.B. Tasavvuf falsafasi xususida. -T.: Yozuvchi, 2000. -40 b.
 24. Mavlanov A.A. Hozirgi zamon fanida inson omilining umumkonseptual nazariyasi muammolariga doir //O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. -T.:2002. №1, 30-31 b.
 25. Maxmudov T. «Avesto» haqida. -T.: Sharq, 2000, -64 b.
 26. Milliy Istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: O‘zbekiston, 2001. -80 b.
 27. Muminov I.M. Iz istorii razvitiya obshestvenno-filosofskoy mgsli v Uzbekistane konsa XIX i nach. XX vv. -T.: Gosizdat, 1957. -S. 214.
 28. Mustaqil O‘zbekiston ta‘limi. /Tuzuvchilar: J.G‘.Yo‘ldoshev va boshq. -T.: Sharq, 1997, 3 b.
 29. Musurxmonova O. Oila ma‘naviyati asoslari. -T.: O‘qituvchi, 1999.
 30. Yusuf Xos Xojib. Kutadg‘u bilig. -T.: Yulduzcha, 1989. -192 b.
 31. Yassaviy A. Devoni hikmat. -T.: G‘.G‘ulom, 1992. -208 b.
 32. Yassaviy A. Hikmatlar. -T.: Adabiyot va san‘at, 1991. -256 b.

33. Yassaviy A. Devoni hikmat. -T.: G'.G'ulom, 1992. 208 b.
34. Hakim at-Termiziy. Hadislar //Sharq yulduzi. 9-son.

INTERNET SAYTLARI

35. Zorkaya N. «Knijnoe chtenie v postrepstroyku: porыtkа diagnoza». www.ryss.ru/journal internet resurs bazasi. 22 sentyabr, 1997.
36. Tarasenko V.V. Poznanie kak fraktalnoe blujdenie v mire. /Internet sayt: WWW. Zhurnal.ru /perogodavariacii.htm. Proekt granta pri podderjke RFFI: grant № 98-06-80282.

MUNDARIJA

KIRISH.....		3-7
I BOB. MUTAFAKKIRLAR ME'ROSIDAN FOYDALANISHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI.		
1.1.	Barkamol avlodni tarbiyalash – jamiyat taraqqiyotining asosiy va bosh masalasidir.	8-22
1.2.	Markaziy Osiyo mutafakkirlarining qarashlarida Barkamol avlodning tarbiyasi.	22-44
II BOB. BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHNING USUL VA VOSITALARI.		
2.1.	Boshlang'ich sinf darslarida mutafakkirlarning me'rosidan foydalanish usullari.	45-61
2.2.	Sinfdan tashqari ishlarda mutafakkirlarimiz o'gitlaridan foydalanish.	61-67
	UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR.....	68-71
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	72-74